**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**«Xizmatlar ko‘rsatish, servis va uni tashkil etish» kafedrasi**

**Z.E.Mamarasulov**

# ILMIY IZLANISH ASOSLARI

fanidan

## amaliy (seminar) mashg‘ulotlari bo‘yicha USLUBIY KO‘RSATMA

***Oliy ta’limning***

*Iqtisodiyot, turizm va xizmatlar sohasi yo‘nalishidagi bakalavriatura talabalari uchun mo‘ljallangan*

**Samarqand – 2013**

**Tuzuvchi:**

Z.E.Mamarasulov – SamISI «Xizmatlar ko‘rsatish, servis va uni tashkil etish» kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

Normaxmatov R. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, t.f.d.

J.S.Fayziyev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n.

«Xizmatlar ko‘rsatish, servis va uni tashkil etish» kafedrasi yig‘ilishi, № 10 son bayoni bilan tasdiqlangan. 2013 yil 30 may.

Institut o‘quv-uslubiy Kengashi №__-sonli bayoni bilan tasdiqlangan, __ ___________ 2013 yil.

# KIRISH

Yurtimizning mustaqillik yillarida ta’lim tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko‘tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati ta’limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda. Ta’limning bosh bo‘g‘ini, bu fan va uning doimiy rivojlanishidir. Shuning uchun ham, Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismida: fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi hisoblanadi.

Shuning uchun xozirgi ilmiy-texnikaviy jadal rivojlanish davrida, ilmiy va ilmiy-texnikaviy axborotlarning intensiv ravishda ko‘payib borishi, turli fanlardagi bilimlarning o‘zgarib, yangilanib borish sharoitida, zamonaviy texnologiyalarning barcha sohalarga kirib borish vaqtida, oliy o‘quv yurtida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ayniqsa, ularning mustaqil ravishda har bir ishda ilmiy-ijodiy yondashishlari, olingan yangiliklarni tadbiq eta bilishlari talab etiladi.

“Ilmiy izlanish asoslari” fanining bakalavriatura o‘quv dasturiga kirgizilib o‘qitilishining asosiy maqsadi, talabalarni dastlabki oliy o‘quv yurtidagi taxsil vaqtidan ilmiy izlanish ishlariga jalb etish, uning natijalarini amaliyotga tadbiq etish va shu bilan birga mustaqil ishlovchi mutaxassislarni tarbiyalashdir.

“Ilmiy izlanish asoslari” fanining bo‘lajak bakalavrlar tayyorlashdagi muhim o‘rni shundan iboratki, bunda talabalar ilmiy izlanish asoslari haqidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirib, tanlangan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha, ilmiy izlanish va tajriba ishlarini tashkil etish va bajarish uslubiy qo‘llanmalariga ega bo‘ladilar, ilmiy izlanish asoslari metodologiyasi, ijodkorlik ilmiy asosini o‘rganish bilan birga, o‘zlarining ijodiy o‘ylovlarini aktivlashtiradilar va har bir masalada erkin ilmiy munosabatda bo‘lishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, ixtirochilik va ratsionalizatorlik tushunchalari asoslari, mualliflik haq-huquqi, O‘zbekiston Respublikasi sanoat mulkchiligi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi va chet el ilmiy izlanish tashkilotlari strukturasi va boshqalar bilan tanishib nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini oshiradilar.

Talabalar bo‘lajak oliy o‘quv yurtidagi tahsili vaqtida o‘quv rejasidagi fanlardan kurs ishlari (loyihalari), ilmiy referatlar, ilmiy anjumanlarda ma’ruzalar, bitiruv malakaviy ishning bajarilishi qoidalari, ularning rasmiylashtirilishiga qo‘yilgan talablar bilan tanishadilar.

Ushbu fanning, boshqa fanlardan farqli o‘qitilishi shundaki, bunda ma’ruzalar barcha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bir xil uslubda o‘qitilsada, ammo amaliy, seminar mashg‘ulotlar institutning shu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha maxsus kafedralarida, alohida-alohida o‘qitiladi. Chunki talabalar, tahsilning birinchi kunlaridan maxsus kafedralar bilan tanishib, ularning ilmiy mavzularining bajarilishlarida qo‘shilib borishlari kerak va dastlabki o‘quv yilida, kelgusida bajariladigan ilmiy bitiruv malakaviy ishlarini tanlashlari kerak. Ayniqsa, ularning talabalar, ilmiy izlanish jamiyatida konstruktorlik byurosida, turli xil institutdagi ilmiy anjumanlarga va seminarlarga, ilmiy to‘garaklarda faol qatnashishlari talab qilinadi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada talabalar fanning ma’ruza mashg‘ulotida olgan bilimlarini sinash uchun nazorat savollari, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar keltirib o‘tiladi.

# 1-mashg‘ulot.
# Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mohiyati

**Mashg‘ulotning maqsadi:** O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida qonunning mohiyati bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish omillari
2. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqislari
3. Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli
4. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari
5. Dasturni ro‘yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar

1.1-jadvalda O‘zbekiston oliy o‘quv muassasalarining mustaqilligimizning dastlabki yillaridan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan holatini ko‘rish mumkin.

1.1-jadval

| OO‘YU soni | 1992 | 1993 | 1994 | 1995 | 1996 | 1997 | 1998 | 1999 | 2000 | 2001 | 2002 | 2006 | 2008 | 2010 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Jami | 54 | 55 | 55 | 57 | 58 | 60 | 60 | 61 | 61 | 61 | 63 | 64 | 66 | 58 |
| Shundan Toshkent shahrida | 25 | 26 | 26 | 27 | 27 | 28 | 28 | 29 | 29 | 29 | 31 | 32 | 34 | 27 |

1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tasarufidagi vazirlik va qo‘mitalar bo‘yicha OTM taqsimlanishi

| O‘zbekiston Respublikasi tasarufidagi vazirlik va qo‘mitalar | Jami | Akademiya | Univer-sitet | Insti-tut | Konservato-riya | Oliy maktab |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi | 31 | 0 | 15 | 16 | 0 | 0 |
| Xalq ta’limi vazirligi | 4 | 0 | 0 | 4 | 0 | 0 |
| Sog‘liqni saqlash vazirligi | 6 | 1 | 0 | 5 | 0 | 0 |
| Madaniyat va sport ishlari | 5 | 0 | 0 | 3 | 1 | 1 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| vazirligi | | | | | | |
| O‘zbekiston Badiiy akademiyasi | 1 | 0 | 0 | 1 | 0 | 0 |
| Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo‘mitasi | 1 | 0 | 1 | | 0 | 0 |
| Adliya vazirligi | 1 | 0 | 0 | 1 | 0 | 0 |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” DAK | 1 | 0 | 0 | 1 | 0 | 0 |
| «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» DK | 1 | 0 | 0 | 1 | 0 | 0 |
| Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi | 4 | 0 | 1 | 3 | 0 | 0 |
| Tashqi ishlar vazirligi | 2 | 0 | 1 | 1 | 0 | 0 |
| Davlat soliq qo‘mitasi | 1 | 1 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi | 1 | 0 | 1 | 0 | 0 | 0 |
| **Jami:** | **58** | **2** | **18** | **36** | **1** | **1** |

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining tashkiliy tuzilmasi**



**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasida klassifikator bo‘yicha nechta OTM mavjud?

a) 65
v) 58
s) 54
d) 55

2. O‘zbekiston Respublikasi yosh kadrlarni ilmiy ishlarini kim tomonidan olib boriladi?

a) O‘zR Oliy Attestatsiya komissiyasi
v) O‘zR FA
s) O‘zROO‘MTV
d) institutda.

3. Nukus deklaratsiyasi qachon qabul qilindi?

a) 1995 yil sentyabr
v) 1995 yil oktyabr
s) 1994 yil sentyabr
d) 1996 yil dekabr

4. Nechanchi yildan boshlab bakalavriatura va magistratura oliy malakali kadrlari tayyorlana boshlandi?

a) 1998 yil
v) 1999 yil
s) 1997 yil
d) 2000 yil

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilindi?

a) 2005 yil 17 aprel
b) 2006 yil 1 aprel
s) 2006 yil 17 aprel
d) 2007 yil 28 yanvar

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida ”gi qarori qachon qabul qilindi?

a) 2012 yil 20 aprel
b) 2012 yil 10 may
s) 2006 yil 17 aprel
d) 2012 yil 28 yanvar

7. “Fan va texnika qo‘mitasi” qachon tashkil etildi?

a) 1992 yil 18 fevral
v) 1992 yil 20 aprel
s) 1995 yil 18 fevral
d) 1992 yil 18 mart

8. “Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi” necha qismdan iborat?

a) 45
v) 42
s) 43
d) 48

9. Vazirlar Mahkamasi maxsus tarmoqlararo tuzilgan Davlat qo‘mitalari nechta qo‘mitani tashkil qiladi?

a) 7 ta
v) 8 ta
s) 9 ta
d) 15 ta

10. Xalq xo‘jaligining tarmoqlari rahbarligini kimlar olib boradi?

a) hokimliklar
v) vazirliklar
s) Prezident
d) Bosh vazir

11. O‘zbekistonda eng yuqori ilmiy tashkilot qaysi?

a) O‘zR OAK
v) O‘zR Fan va texnologiya qo‘mitasi
s) O‘zR Vazirlar Mahkamasi
d) O‘zR Fanlar Akademiyasi

12. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?

a) 1992 yil 29 avgust
v) 1995 yil 29 avgust
s) 1997 yil 29 avgust
d) 1999 yil 29 avgust

13. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo‘limlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari; milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari; kadrlar tayyorlashning Milliy modeli; kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

v) kadrlar tayyorlashning Milliy modeli; kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

s) muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari; milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari;

d) kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

14. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) 1992-1995, 1993-1996

v) 1996-1997, 1998-2001

s) 2002-2005, 2005-2010 va undan keyingi yillar

d) 1997-2001, 2001-2005, 2005 va undan keyingi yillar

15. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash uzluksiz tizimi va turini aytib bering.

a) kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

v) maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

s) maktabgacha ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

d) oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

16. Ilmiy darajaga qaysilar kiradi?

a) professor

v) assistent

s) fan doktori, fan nomzodi

d) dotsent

17. Ilmiy unvonga qaysilar kiradi?
a) dotsent
v) professor, dotsent
s) fan doktori
d) fan nomzodi

18. Magistraturada o‘qish necha yil?
a) 2 yil
v) 4 yil
s) 3 yil
d) 1 yil

19. “Iqtidorli talabalar bilan ishlash” bo‘limi Nizomi qachon tasdiqlangan?
a) 2002 yil 25 mart
v) 2002 yil 30 mart
s) 2001 yil 30 mart
d) 2001 yil 10 mart

20. Institutda iqtidorli talabalar bilan ishlashni qasi prorektor tashkil etadi?
a) O‘quv ishlari prorektori
v) Ilmiy ishlar prorektori
s) Ma’naviyat va ma’rifat ishlari prorektori
d) Kasaba uyushmasi bo‘limi

21. Institutimizda nechta prorektor bor?
a) 2 ta
v) 3 ta
s) 4 ta
d) 5 ta

22. Institutda fakultetlararo kafedralar nechta?
a) 5 ta
v) 8 ta
s) 12 ta
d) 2 ta

23. Xzmatlar ko‘rsatish, seris va uni tashkil etish kafedrasi qaysi fakultetga qaraydi?
a) Iqtisodiyot va menejment
v) Bank-moliya xizmatlari
s) Servis va turizm
d) Fakultetlararo kafedralar

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy izlanish komplekslariga nimalar kiradi va ularni tushuntirib bering?
2. O‘zbekiston Respublikasi OAK vazifasi nimadan iborat?
3. DITD ning mazmunini va mohiyatini tushuntirib bering?
4. Ilmiy izlanishlarning umumiy tashkillantirilishi va rivojlanishini kim tomonidan olib boriladi?
5. “Fan va texnologiyalarni rivojlantirish muvofiqlashtirish” qo‘mitasining asosiy vazifasi nima?
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy muassasalariga qaysi muassasalar kiradi?
7. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari nimalardan iborat?
8. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlarini sanab o‘ting.
9. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli deganda nimani tushunasiz?
10. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga nimalar kiradi?
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmonining mohiyatini tushuntirib bering.
12. Institutda talabalar ilmiy izlanish ishlarining olib borilishi qanday tashkil etiladi?
13. Talabalar ilmiy jamiyatining mohiyatin tushuntiring.
14. Iqtidorli talabalar bilan ishlash ilmiy bo‘lim vazifalari nimalardan iborat?

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talabaga mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Samarqand iqtisodiyot va servis institutining tashkiliy tuzilmasini o‘rganib kelish.
2. “Ta’lim to‘g‘risida” qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zR qonunini tahlil qilish.
3. Davlat ilmiy-texnika dasturlarining (DITD) nomlarini o‘rganib kelish.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 3-31 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash to'g'risidagi Nizom. - Toshkent, 1996 y. O'z.R.FTQ. 37 b.


## 2-mashg'ulot.
## Mavzu: Ilmiy-bilish metodologiyasi

**Mashg'ulotning maqsadi:** ilmiy-bilish metodologiyasi bo'yicha savol-javoblar o'tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg'ulot rejasi:**

1. Ilmiy bilishning umumiy tushunchasi
2. Ilmiy izlanish bosqichlari
3. Ilmiy izlanish metodologiyasidagi asosiy metodlar

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Insonning bilish quroliga nima kiradi?
   a) aql
   v) faol
   s) aql, faol
   d) bilim
2. Bilishning necha xil turi bor?
   a) 4 xil
   v) 2 xil
   s) 3 xil
   d) 5 xil
3. Intuitiv bilishning ma'nosini aytib bering?
   a) inuitsiya so'zidan olingan bo'lib, bevosita bilish, payqash degan ma'noni bildiradi
   v) inuitsiya so'zidan olingan bo'lib payqash degan ma'noni bildiradi
   s) inuitsiya so'zidan olingan bo'lib, bilmaslik, payqash degan ma'noni bildiradi
   d) lotincha bevosita bilish, payqash degan ma'noni bildiradi

4. Mantiqiy bilish deb nimaga aytiladi?

a) insonning predmet va hodisalarni tafakkur orqali umumlashtirish, mavxumlashtirib va aniqlashtirib, ularni fikrida bilishdir

v) mavxumlashtirib va aniqlashtirib, ularni fikrida bilishdir

s) insonning predmet va hodisalarni tafakkur orqali ularni fikrida bilishdir

d) insonning predmet orqali umumlashtirish ularni fikrida bilishdir

5. Bilim o‘zining sifati bo‘yicha necha xil bo‘ladi?

a) 5 xil

v) 2 xil

s) 3 xil

d) 8 xil

6. G‘oya tabiatiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?

a) ilmiy va badiiy g‘oya

v) badiiy g‘oya

s) ilmiy g‘oya

d) to‘g‘ri real g‘oyasi

7. G‘oya harakteriga ko‘ra necha xil bo‘ladi?

a) to‘g‘ri real, xato yoki fantastik

v) to‘g‘ri real

s) xato

d) fantastik

8. Muammo qanday so‘zdan olingan va uning ma’nosi.

a) arabcha so‘z bo‘lib, masala, vazifa ma’nosini bildiradi

v) lotincha so‘z bo‘lib, vazifa ma’nosini bildiradi

s) grekcha so‘z bo‘lib, masala ma’nosini bildiradi

d) vazifa va masala ma’nosini bildiradi

9. Gipoteza nima.

a) tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to‘g‘risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma’lumotlarga zid bo‘lgan, ammo haqiqiyligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

v) predmet yoki hodisa to‘g‘risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslanmagan ilmiy bilishdir.

s) hodisa to‘g‘risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslanmagan ilmiy bilishdir.

d) ilmiy faktga zid bo‘lgan, lekin haqiqiyligi isbotlanmagan ilmiy bilishdir.

10. Nazariya qanday paydo bo‘ladi?

a) bir fan sohasida ma’lum bilishlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo‘ladi

v) ma’lum bilishlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo‘ladi

s) bir fan sohasida asosida paydo bo‘ladi

d) bilishlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo‘ladi

11. Ilmiy bilish falsafada necha turga bo‘linadi?

a) 3 turga

v) 2 turga

s) 5 turga

d) 4 turga

12. Ilmiy izlanishda samaraligi bilan ajralib turgan usullar va metodlarni aytib bering?

a) kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish va aniqlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish

v) induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish va aniqlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish

s) Kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish

d) abstraktlashtirish va aniqlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish

13. Motivitsiya necha xil bo‘ladi?

a) biologik, sotsial va ideallashganlik

v) biologik

s) biologik va ideallashganlik

d) sotsial va ideallashganlik

14. Analiz nima

a) ko‘p qismlar, tomonlar va elementlarga ajratib o‘rganish

v) bo‘laklar, tomonlar va elementlarga ajratib o‘rganish

s) bir butun qismlar, bo‘laklar, tomonlar va elementlarga ajratib o‘rganish

d) bir qism elementlarga ajratib o‘rganish

15. Ilmiy texnik ijodda yevrestik usullar necha xil bo‘ladi?
a) 8 xil
v) 7 xil
s) 5 xil
d) 4 xil

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Bilimning vazifasi nima?
2. Ilmiy bilish turlarini aytib bering?
3. Bilim deb nimaga aytiladi?
4. G‘oya nima va uning turlarini aytib bering?
5. Gipoteza deb nimaga aytiladi?
6. Nazariyaning asosiy vazifalari nima?
7. Ilmiy bilish, ilmiy-tadqiqot qanday so‘zdan olingan va uning ma’nosi nima?
8. Kuzatish va eksperiment metodlar deganda nimani tushunasiz?
9. Ijodiy izlanish etaplarini aytib bering.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talabaga mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ilmiy bilish uslubiyatini tahlil qilishi.
2. Formatlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik usullarni ma’nolarini aniqlab keling.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 31-44 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. Qurbonov J.M. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Samarqand. SamISI, 2005 y. 184 b.
4. Qurbonov J.M. Ilmiy izlanish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamISI, 2009. – 248 bet.
5. V.I.Krutov, I.M. Grushko i dr. Osnovi nauchnix issledovaniye. – M.; Visshaya shkola, 1990. 400 s.

# 3-mashg‘ulot.
# Mavzu: Ilmiy izlanish yo‘nalishini tanlash va ularning bajarilishi

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ilmiy izlanish yo‘nalishini tanlash va ularning bajarilishi bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Ilmiy izlanish ishlarinig turlanishi va uning strukturasi
2. Ilmiy izlanish yo‘nalishini tanlash
3. Ilmiy izlanish yo‘nalishi bo‘yicha ishlarning bajarilishi

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Izlanish ob’ektiga nima kiradi?
   a) material
   v) ideal
   s) material yoki ideal
   d) predmet
2. Ilmiy izlanish ishlari necha turga bo‘linadi?
   a) amaliy
   v) ishlab chiqarish
   s) fundamental
   d) fundamental, amaliy, ishlab chiqarish
3. Fundamental va amaliy izlanish natijasida nima paydo bo‘ladi?
   a) tajriba
   v) ilmiy axborot
   s) fundament
   d) komlpeks muammo
4. Tajribada nima bajariladi?
   a) konstrutorlik ishlarida konstruktiv tanlash ishlari bajariladi
   v) tanlash ishlari bajarilmaydi
   s) konstruktorlik ishlari bajarilmaydi
   d) tajriba ishlari olib borilmaydi
5. Ilmiy izlanish o‘zining muhimligi darajasi bo‘yicha necha turga bo‘linadi?
   a) 5 turga
   v) 1 turga
   s) 3 turga
   d) 8 turga

6. Ilmiy izlanish yo‘nalishining vazifasi nima?

a) muammoni yoki ilmiy mavzuning tanlanishi va ilmiy savolarning to‘g‘ri qo‘yilishi.

v) ilmiy savolarning to‘g‘ri qo‘yilishi.

s) muammoni to‘g‘ri qo‘yilishi.

d) ilmiy mavzuning tanlanishi va ilmiy savolarning to‘g‘i berilmasligi.

7. Davlat ilmiy-texnik dasturi qachon tasdiqlangan?

a) 2006 yil 22 iyun

v) 2005 yil 22 iyun

s) 2005 yil 1 iyun

d) 2004 yil 22 iyun

8. Davlat ilmiy-texnik dasturi (DITD) nechta qismdan iborat?

a) 4 ta

v) 10 ta

s) 11 ta

d) 15 ta

9. Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasi mavzusi qaysi DITD ga to‘g‘ri keladi?

a) 5 ga

v) 4 ga

s) 2 ga

d) 6 ga

10. Ilmiy izlanish ishlari bosqichlari soni nechta?

a) 10 ta

v) 9 ta

s) 8 ta

d) 5 ta

11. Nazariy izlanish etapi ma’nosini tushuntirib bering?

a) izlanish predmetining fizikaviy tushunchasi va mohiyati aniqlanadi

v) faqat fizikaviy tushuncha aniqlanadi

s) faqat matematik tushuncha aniqlanadi

d) faqat predmet mohiyati aniqlanadi

12. Eksperimental izlanish nima?

a) dastur tanlanadi, yelkin tajriba o‘tkazilmaydi

v) tajriba uslubi tanlanmaydi

s) eksperiment bo‘yicha tajribalar o‘tkazilmaydi

d) eksperiment-tajriba uslubi va dasturi tanlanadi yoki tuziladi va shu dastur bo‘yicha tajribalar o‘tkaziladi

13. Nazariy va amaliy izlanish natijalari nima bilan taqqoslanadi?

a) tajriba bilan

v) gipoteza bilan

s) xulosa bilan

d) etap bilan

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ilmiy izlanish ishlarining turlanishini tushuntiring.
2. Ilmiy izlanishnig maqsadi nimadan iborat?
3. Fundamental va amaliy izlanish mohiyati nimada?
4. Ilmiy izlanishlarning muhimligi darajasi bo‘yicha qanday bo‘linadi?.
5. Ilmiy izlanish yo‘nalishlarini aytib bering.
6. Ilmiy muammo, yo‘nalish, ilmiy mazu va savollar tushunchasini tushuntiring.
7. Ilmiy yo‘nalish dolzarbligini aniqlash deganda nimani tushunasiz?
8. Ilmiy izlanish ishlarining bajarilishi qanday bosqichlardan iborat?.
9. Nazariy amaliy izlanishdagi natijalarning umumiy tahlilini tushuntiring.
10. Texnikaviy iqtisodiy tasdiqlash etapining mazmuni.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talabaga mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Kompleks muammo haqida ma’lumotlar keltiring.
2. Ilmiy izlanish yo‘nalishini tanlashda asosiy e’tibor nimaga qaratilishini tahlil qiling.
3. Muvaffaqiyatli bajarilgan ishlar qayerda tasdiqlanadi va u qayerda qo‘llanilishi haqida tayyorlanib keling?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 44-54 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” 1992.

# 4-mashg‘ulot.
# Mavzu: Ilmiy axborotlar manbalari izlanishi, yig‘ilishi

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ilmiy axborotlar manbalari izlanishi, yig‘ilishi bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Ilmiy axborotlar manbalari
2. Axborotlar izlanishi sistemalari

4.1-jadal

UDKning umumiy belgilari

| Belgilanishi | Belgilar nomi | Ma’nosi | Misollar |
|---|---|---|---|
| + | Plyus (qo‘shuv) | Qo‘shish belgisi | 622+669 Metallurgiya va tog‘ ishi |
| / | Qiyshiq chiziq | Kengaytirish belgisi | 592/599 Zoologiya sistemalari |
| : | Ikki nuqtali | Oddiy munosabatlar belgisi | 17:7 O‘zaro bog‘lanish san’ati va etikasi. San’at bo‘yicha etikaning o‘zaro bog‘lanishi |
| :: | Ikkita ikki nuqtali | Ketma-ketlikda mustahkamlash belgisi | 575::576.3 Sitogenetika |
| [ ] | Kvadratli qavus | Gruppalash belgisi | 061.1(100):[54+66] Xalqaro nazariy va amaliy kimyo ittifoqi |
| * | Yulduzchali | O‘zlashtirish belgisi | |
| A/YA | Alfavitli | Alfavit bo‘yicha ajratish | |




4.1-Rasm. Informatsion sistemaning umumiy sxemasi.




4.2-Rasm. Atomatlashtirilgan informatsiyali-axtarish sistemasining umumiy sxemasi.

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. EHM so‘zining kengaytirilgani….
   a) elektron kompyuter hisoblashi
   v) elektron hisoblash mashinalari
   s) hisoblash kompyuterlari
   d) mashina elektronlari
2. Informatika sistemasiga nimalar kiradi?
   a) ilmiy kommunikatsiya
   v) informatsion mahsulot
   s) ilmiy kommunikatsiya, informatsion mahsulot, ko‘rsatkichlar ba’zasi, informatsiya resursi, informatsiya texnologiyasi, informatsiya tarmog‘i
   d) informatsiya resursi, informatsiya texnologiyasi
3. Ba’zi axborotlar va xizmatlarning birligi standart ko‘rinishida qanday nomni olgan?
   a) axborot
   v) texnologiya
   s) texnika
   d) informatsiya mahsuloti
4. Ilmiy hujjat nima?
   a) material ob’ekt bo‘lib, tarkibida ilmiy-texnikaviy axborot bo‘lib, saqlash va foydalanishga mo‘ljallangandir.
   v) material ob’ekti bo‘lib, foydalanishga mo‘ljallanmagan
   s) ilmiy-texnikaviy axborotni foydalanishga mo‘ljallanmagan
   d) hamma javob to‘g‘ri
5. UDK ma’nosi va u O‘zR qachondan beri qo‘llanilib kelinadi.
   a) o‘nli klassifikatsiya, 1995 yildan
   v) o‘nli universal klassifikatsiya, 1963 yildan
   s) 1989 yildan
   d) o‘nli klassifikatsiya, 1970 yildan
6. Informatsiya ma’nosi.
   a) lotinchadan olingan bo‘lib, tushuntirish, bayon qilish ma’nosini bildiradi
   v) arabcha bo‘lib, axborot degan ma’noni bildiradi
   s) grekcha bo‘lib izlanish ma’nosini bildiradi
   d) lotinchadan olingan bo‘lib, yig‘ish ma’nosini beradi
7. Informatikaning qanday xususiyatlari bor?
   a) sifat, zichlik

v) zichlik
s) informatsiyalar miqdori, sifati, zichligi, tezligi, sig‘imi
d) miqdorlari

8. Birinchi avlod EHMlari qachon yaratilgan
a) 1950 yil
v) 1980 yil
s) 1960-1970 yillar
d) 1980-1985 yillar

9. Uchinchi avlod EHMlari qachon yaratilgan
a) 1960-1970 yillar
v) 1950-1955 yillar
s) 1990 yil
d) 1970-1980 yillar

10. Informatsiya sistemasi nimalardan tashkil topgan?
a) informatsiya kritish
v) informatsiya kritish, qayta ishlov, saqlash, axtarish sitemasi
s) qayta ishlovi
d) axtarish, saqlash

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ilmiy axborotlarni yig‘ish vazifasi.
2. Informatika fanining ahamiyati.
3. Axborotlarni to‘rt kategoriyalarga bo‘lish.
4. Ilmiy hujjatlar turlari.
5. Ilmiy texnik axborotlarning operativ manbai.
6. Maxsus informativ manbalar turlari.
7. Birlamchi va ikkilamchi hujjatlar turlari.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talabaga mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ilmiy axborotlar manbalari bo‘yichsa ma’lumotni to‘plash va o‘rganib kelish
2. Axborotlar izlanishi sistemalarini chuqurroq o‘rganish.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 54-65 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. Oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar faoliyatini tashkil qilish va ular bilan ishlash (me’yoriy-uslubiy qo‘llanma). - G.; Tom. TESI., 2002 y, 30 b.

## 5-mashg‘ulot.
## Mavzu: Ilmiy axborotlarni qayta ishlovi

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ilmiy axborotlarni qayta ishlovi bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Ilmiy axborotlar tushunchasi.
2. Ilmiy axborotlarni qayta ishlovi

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Qaysi sistemadagi axborotlar qayta ishlovi tahlil etiladi?

a) ko‘p sistemadagi
v) yig‘ilgan, bir sistemadagi axborotlar
s) yig‘ilmagan sistemada
d) to‘liq bo‘lmagan sistemada

2. Tahlil qilish jarayonida necha xil axborot mangbalaridan foydalaniladi?

a) xronologik tartibda va mavzu bo‘yicha
v) mavzu bo‘yicha
s) mavzuli sistemada
d) xronologik sistemada

3. Axborotlar xronologik sitemada qanday amalga oshiriladi?

a) barcha axborot o‘zining tarixi bo‘yicha
v) kelib chiqishi bo‘yicha
s) barcha axborot o‘zining tarixi bo‘yicha, kelib chiqish vaqti tartib bo‘yicha ilmiy bosqichga ko‘ra sistemalashtiriladi.
d) ilmiy bosqichga ko‘ra sistemalashtirilmaydi.

4. Axborotlar mavzu bo‘yicha qanday amalga oshiriladi?

a) oddiy sistema bo‘yicha
v) murakkab sistema bo‘yicha
s) butun hajm bo‘yicha
d) axborotning butun hajmi ishlab chiqarilayotgan mavzu masalalari bo‘yicha oddiy yoki murakkab sistemalar

5. Axborotlarni qayta ishlash tahlilida nimalarga e’tibor beriladi?

a) har bir mavzuning dolzarbligi
v) ilmiy izlanish maqsadi va vazifasining aniqligi
s) hammasi to‘g‘ri
d) mavzu bo‘yicha ishlab chiqarish tavsiyalari

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. UDK tushunchasi va uning umumiy belgilari.
2. Ilmiy-texnik davlat axborot sistemasi.
3. Ilmiy axborotlarning tahlil etilishi.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talabaga mustaqil ish topshiriqlari:**

1. To‘plangan ilmiy axborotlarni qayta ishlashini o‘rganib kelish.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 54-65 betlar.

2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.

3. Oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar faoliyatini tashkil qilish va ular bilan ishlash (me’yoriy-uslubiy qo‘llanma). - G.; Tom. TESI., 2002 y, 30 b.

## 6-mashg‘ulot.
## Mavzu: Nazariy va amaliy ilmiy izlanish

**Mashg‘ulotning maqsadi:** nazariy va amaliy ilmiy izlanish bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Nazariy-ilmiy izlanish vazifasi va metodlari
2. Nazariy va amaliy izlanishda modellashtirish
3. Amaliy-ilmiy izlanish vazifasi va metodlari
4. Nazariy va amaliy izlanishda tajribaning ahamiyati




5.1-Rasm. Ilmiy topshiriq yechimining strukturaviy sxemasi.




Rasm 5.2. Matematik modellarni tuzishda matematik apparat sxemasi.

Bunday sxemalar, tashqi muhit bilan bog‘lanishi asosan to‘rt xil bo‘lishi mumkin, ular 5.3-rasmda keltirilgan.




5.3-Rasm. Ob’ektning tashqi muhit bilan bog‘lanish turlari sxemasi:
a) bir faktorli - birli sxema; b) bir faktorli - ko‘pli sxema;
v) ko‘p faktorli - birli sxema; g) ko‘p faktorli - ko‘pli sxema.

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Gipotezalarni asoslash uchun nima qilish kerak?
   a) isbotlanadi
   v) nazariyaga aylantirish kerak
   s) isbotlanmaydi
   d) tajriba olib boriladi
2. Nazariya qanday paydo bo‘ladi?
   a) bir xilda
   v) ko‘p fanlar umumlashuvi asosida
   s) biror fan sohasiga oid bo‘lib, ma’lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida
   d) biror fanning umumlashtirilmasligi asosida
3. Nazariy izlanishning vazifasiga nimalar kiradi?
   a)tajriba natijalariga ishlov berish
   v) izlanish natijalarini umumlashtirish, tajriba natijalariga qayta ishlov berish, umumiy qonuniyatlarni topish, tajribada qo‘llash mumkin bo‘lmagan ob’ektni o‘rganish, eksperimental izlanishning aniqligini oshirish
   s) umumiy qonuniyatlarni topish
   d) izlanishni davom ettirmay turib, shunga o‘xshash ob’ektlarga qo‘llash

4. Nazariy izlanishning asosiy maqsadi nima?

a) izlanuvchi ob’ekt bilan tashqi muhitning bilimlar sintezi jarayonida o‘zaro bog‘liqligini ajratish

v) tashqi muhitning bilimlar sintezini biriktirish

s) ob’ekt bilan tashqi muhitni birlashtirish

d) izlanuvchi bilimlari jarayonida o‘zaro bog‘liqligini aniqlash

5. Nazariy izlanishning harakteri bo‘yicha bosqichlarini sanab o‘ting.

a) operativ

v) sintetik

s) operativ, sintetik, vazifani qo‘yish, analitik

d) vazifani qo‘yish

6. Nazariy izlanishda qaysi model ko‘proq qo‘llaniladi?

a) fizikaviy

v) matematik

s) texnik

d) funksiyali

7. Matematik model qanday ma’noni bildiradi?

a) matematik formulalarni yozish

v) fizikaviy formulalarni matematik usulda yozish

s) matematik munosabatlar sistemasini, ya’ni formulalar, funksiya va tenglamalar sistemasi

d) tenglamalar sistemasini hisoblash

8. Modellashdan keyingi ilmiy nazariy izlanishda qaysi usul keng qo‘llaniladi?

a) fizik

v) texnik

s) arifmetik

d) analitik

9. O‘xshashlik nazariyasida qaysi tenglamalar ishlatiladi?

a) matematik

v) trigonometrik

s) orginalni tavsiflovchi, o‘xshash model-kriteriyalari, kriterial tenglamalar

d) informatik

10. O‘xshashlik harakteri bo‘yicha necha xil bo‘ladi?

a) to‘la

v) to‘liq bo‘lmagan

s) yaqinlashgan

d) absolyut, to‘l, to‘la bo‘lmagan, yaqinlashgan

11. Sinovdan o‘tkazilgan ilmiy nazariya qayerda rahbarlik qiladi?
a) fanda
v) xo‘jalikda
s) amaliyot boshqaruvida
d) tashkilotlarda

12. Yaxshi eksperiment, tajriba, ilg‘or nazariya tuzishga asosiy shart qaysi hisoblanadi?
a) yaxshi bilimga ega bo‘lish sharti
v) amaliy natijalar olish sharti
s) xulosalar olish sharti
d) kutilayotgan natija olish sharti

13. Amaliy izlanish qaysi qismlardan iborat?
a) nazariy qism
v) tajriba
s) eksperiment, ishlab chiqarish, sotsial-o‘zgaruvchan faoliyat
d) ishlab chiqarish

14. Odamzotning faoliyatini asosiy faoliyati qaysi hisoblanadi?
a) amaliy faoliyati
v) nazariy faoliyati
s) ilmiy faoliyati
d) ijodiy faoliyati

15. Amaliy faoliyatining strukturaviy tarkibining sanab bering?
a) tajriba
v) sub’ekti, ob’ekti vositasi, operatsiyalar, natijalar, maqsad va faoliyat sharoiti
s) faoliyat sharoiti
d) natijalar

16. Amaliy izlanish asosini nima tashkil qiladi?
a) nazariya
v) amaliyot
s) tajriba
d) inson faoliyati

17. Tajriba ma’nosini tushuntirib bering.
a) lotinchadan eksperiment ma’nosini bildiradi
v) arabcha so‘zdan olingan
s) inglizcha eksperiment ma’nosini bildiradi
d) grekcha so‘zdan olingan bo‘lib faoliyat ma’nosini bildiradi

18. Tajriba eksperimentlari asosan qaysi fanlarda qo‘llaniladi?
a) matematika, informatika
v) tabiiy va texnika fanlarida
s) iqtisodiy fanlarda
d) ijtimoiy-gumanitar fanlarda

19. Tajribalar natijalari qayta ishlovida qaysi metod keng qo‘llaniladi?
a) geometrik
v) amaliy
s) ehtimollar nazariyasi metodlari
d) biologik

20. Olingan natijalarni ishonchliligini baholashda qanday kriteriyalar ishlatiladi?
a) Fisher
v) Stuyudent
s) Arximed
d) Gaus

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Nazariy izlanishning asosiy maqsadi.
2. Nazariy izlanishning vazifasiga nimalar kiradi?
3. Nazariy izlanishda qo‘llaniladigan uslublar turlari.
4. Berilgan topshiriq yechimining strukturaviy sxemasining mohiyati.
5. Nazariy izlanishda matematik uslublarning qo‘llanilishi.
6. Ilmiy texnikaviy ijodda modellashtirish ahamiyati.
7. Amaliy izlanish turlari.
8. Amaliy izlanishda tajribaning vazifasi.
9. Tajribaning turlari.
10. Tajriba natijalarini qayta ishlovi.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Nazariy izlanishda uslublarning qo‘llanilishini tahlil qilib kelish.
2. Nazariy va Amaliy izlanishda modellarning ahamiyatini tushuntirish.
3. Nazariy va amaliyotning fanning rivojlanishidagi ahamiyatini tahlil qilish.
4. Eksperimentlarning natijalarini qayta ishlovi haqida ma’lumot to‘plash.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 66-82 betlar.

2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.

3. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar faoliyatini tashkil qilish va ular bilan ishlash (me'yoriy-uslubiy qo'llanma). - G.; Tom. TESI., 2002 y, 30 b.

## 7-mashg'ulot.
## Mavzu: Ilmiy ishlar natijalarini tuzish, axborotini berish va amaliyotda tadbiq qilish

**Mashg'ulotning maqsadi:** ilmiy ishlar natijalarini tuzish, axborotini berish va amaliyotda tadbiq qilish bo'yicha savol-javoblar o'tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg'ulot rejasi:**

1. Tajriba natijalari qayta ishlovi va ularning ishonchliligini aniqlash metodlari
2. Ilmiy ishlar natijalarini tuzish
3. Ilmiy ishlar axborotini berish sistemasi haqida
4. Ilmiy ishlar natijalarini amaliyotga tadbiq qilish

Jadval

Korxona biror-bir iqtisodiy ko'rsatkichini kuzatish natijalari va uning qayta ishlovi

| Kuzatuv seriyasi | Ko'rsatkichlarni miqdori va takrorlash | | | | | Hisoblash | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | $\bar{x}_i$ | $D_i$ |
| 1 | 7 | 9 | 6 | 8 | 4 | 6,8 | 3,7 |
| 2 | 9 | 7 | 8 | 6 | 5 | 7,0 | 2,0 |
| 3 | 8 | 8 | 7 | 9 | 8 | 8,0 | 0,5 |

Masalan, "Turon" ko'p tarmoqli mas'uliyati cheklangan jamiyatda 2001-2005 yillardagi mehnat unumdorligining regression tahlilini hisoblashda oxirgi 5 yil ketma-ketlikda: x=1, 2, 3, 4, 5 deb qabul qilingan va yuqorida keltirilgan metodikada barcha hisoblar jadvalga kiritilgan.

Jadval

| Yil-lar | x | y | $x-\bar{x}$ | $y-\bar{y}$ | $(x-\bar{x})^2$ | $(y-\bar{y})^2$ | $x^2$ | $y^2$ | $xy$ | $(x-\bar{x})^2$ $(y-\bar{y})^2$ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2001 | 1 | 608,1 | -2 | -509 | 4 | 2590,8 | 1 | 3697856 | 608,1 | 101,8 |
| 2002 | 2 | 647,2 | -1 | -118 | 1 | 139,2 | 4 | 41888678 | 1294,4 | 11,8 |
| 2003 | 3 | 652,2 | 0 | -6,8 | 0 | 46,2 | 9 | 425364,8 | 1956,6 | 0 |
| 2004 | 4 | 691,1 | 1 | 32,1 | 1 | 1030,4 | 16 | 477619,2 | 2764,4 | 32,1 |
| 2005 | 5 | 696,4 | 2 | 37,4 | 4 | 1398,7 | 25 | 484973 | 3482 | 74,8 |
| jami | 15 | 3295 | 0 | 0 | 10 | 5205,3 | 55 | 2176610,4 | 10105,5 | 220,5 |

Jadvalda ushbu tenglama yordamida 1-7 yillar uchun hisoblanganligi keltirilgan.

Jadval

| Yillar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 |
| Y | 608,1 | 647,2 | 652,2 | 691,4 | 696,4 | | |
| $y_x$ | 614,8 | 637 | 659 | 682,8 | 703 | 725,1 | 747,1 |

Quyida mehnat unumdorligini aniqlash tenglamasining adekvatligini hisoblash jadvali keltirilgan

Jadval

| № | $y_i$ | $y_{ik}$ | $y_i = \sum_i^n y_i \Big/ m$ | $y_{ix} - \bar{y}_i$ | $(y_{ix} - y_i)^2$ | $\sum_i^m \frac{(y_{ix} - y_i)^2}{m}$ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 608,1 | 614,8 | 614,8 | 7,7 | 59,29 | 59,29 |
| 2 | 647,2 | 637 | 637 | -10,2 | 104,04 | 101,04 |
| 3 | 652,2 | 659 | 659 | 6,8 | 46,24 | 46,24 |
| 4 | 691,4 | 682,8 | 682,8 | -8,6 | 73,96 | 73,96 |
| 5 | 696,4 | 703 | 703 | 6,6 | 43,56 | 43,56 |
| | | | | | 327,09 | 327,09 |

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Tajriba va kuzatishlarda bo'ladigan hatoliklar qaysi fanda o'rganiladi?
   a) matematika
   v) fizika
   s) nazariy asoslar
   d) informatika

2. Ishonchlilik ehtimoli formulasini aniqlang.
   a) $D_a = \frac{\sum_1^n (y_{it} - \bar{y}_{iэ})^2}{n - d}$
   v) $P_d = P[a \le x_d \le b] = (1/2)\left[\varphi(b - \bar{x})/\sigma - \varphi(a - \bar{x})/\sigma\right]$
   s) $\Delta = \sigma_0 / \bar{x}$
   d) $k_{кр} = \max D_i / \sum_1^m D_i$

3. Ishonchlilik intervali qiymatlarini sanab o'ting.
   a) 0,85
   v) 0,1
   s) 0,90, 0,95, 0,9973
   d) 0,2

4. Koxren kriteriyasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan
   a) $D_a = \frac{\sum_1^n (y_{it} - \bar{y}_{iэ})^2}{n - d}$
   v) $P_d = P[a \le x_d \le b] = (1/2)\left[\varphi(b - \bar{x})/\sigma - \varphi(a - \bar{x})/\sigma\right]$
   s) $\Delta = \sigma_0 / \bar{x}$
   d) $k_{кр} = \max D_i / \sum_1^m D_i$

5. Fisherning tajriba kriteriyasi formulasini aniqlang.
   a) $D_a = \frac{\sum_1^n (y_{it} - \bar{y}_{iэ})^2}{n - d}$
   v) $k_{фэ} = D_a / D_{cp}$
   s) $\Delta = \sigma_0 / \bar{x}$
   d) $k_{кр} = \max D_i / \sum_1^m D_i$

6. Materiallarni rasmiylashtirishda nimalarga rioya qilinishi kerak?

a) tartibga

v) davomiylikkka

s) aniqlik, sistematik, ketma-ketlikka

d) ilmiy mazuga

7. Mundarija ma'nosini tushuntiring.

a) butun ish mazmunining sistemali ifodalanishi

v) barcha ishning ifodalanmasligi

s) ishlarning kelib chiqishi

d) ishni mulohaza qilinishi

8. Ilovaning ma'nosini tushuntiring.

a) asosiy matndagi jadvallar berilmaydi

v) asosiy matnda yordamchi bo'lgan, ikkinchi darajali jadvallar, grafiklar beriladi

s) ikkinchi darajali jadvallar asosiy matnda beriladi

d) umumalshtirish bilan ilmiy ishning yakuni keltiriladi.

9. O'zgaruvchan omilli bog'liqlik tenglamasini aniqlang.

a) $D_a = \frac{\sum_i^n (y_{ix} - \bar{y}_i)^2}{n - d}$

v) $D_{yp} - \frac{\sum_i^n \sum_i^n (y_{ix} - y_i)^2}{m \cdot n}$

s) $y = b_0 + \sum_i^u b_i x_i + \sum_j b_{ij} x_i + \sum_i^u b_{ij} x_i^2$

d) $k_{фэ} = D_a / D_{yp}$

10. Fisher kriteriyasi belgisini ko'rsating.

a) $D_a$

v) $D_{yp}$

s) $P$

d) $k_{фэ}$

11. Axborotlar qanday shaklda tuziladi?

a) ma'ruza holda

v) annotatsiya, referat, ilmiy maqola, ilmiy xabar, ma'lumotnoma hollarda

s) gipoteza holida

d) axborot berish holida

12. Referat va annotatsiyaga bo'lgan talab qanday belgida berilgan?

a) ma'ruza shaklida

v) izlanish ob’ekti shaklida

s) GOST 7.9-77 shaklida

d) raqam shaklida

13. Patentlar, maqolalar qancha belgida beriladi?

a) 1000

v) 1500

s) 900

d) 500

14. Hozirgi ilmiy axborotlarning qayta ishlovi qanday usullarda qo‘llaniladi?

a) resenziya

v) referat

s) annotatsiya

d) informativ va metainformativ

15. Resenziya ma’nosini tushuntirib bering?

a) birlamchi hujjatning (yoki qisman) qisqacha, yangi asosiy faktlar, ma’lumotlar va xulosalar bilan berilishi

v) birlamchi hujjatning ma’lumotlar va xulosalar bilan berilishi

s) publikatsiya etildaigan ilmiy axborotga tanqidiy tahlil asosida yozilgan kichik bir maqola hisoblanadi.

d) yangi asosiy faktlar, ma’lumotlar va xulosalar bilan berilishi

16. Ilmiy izlanish ishlarini samardorligini qanday aniqlash mumkin?

a) natijalarni amaliyotga tadbiq etilmaganda

v) amaliyotga tadbiq qilinmaydi

s) natijalarni amaliyotga tadbiq qilingandan so‘ng

d) xal xo‘jaligida ko‘zda tutilmaydi

17. Tadbiq etishda qaysi xususiyatlar bilan ajralib turadi?

a) moddiylashishi va ish fuknsiyasi

v) ilmiy ishlar natijalari amaliyotga tadbiq qilinmaydi

s) republikatsiya etilganda

d) metainformativ usulda

18. Ilmiy izlanish natijalarini tadbiq etish necha etapda olib boriladi?

a) 5 xil etapda

v) sinov ishlab chiqarishda va serialli ishlab chiqarishda

s) bitta etapda

d) 3 xil etapda

19. Dalolatnoma kimlar tomonidan izolanadi?

a) ishga qatnashmaganlar tomonidan

v) topshiriq bermaganlar tomonidan

s) qatnashmaganlar tomonidan

d) ishni tayyorlaganlar va topshiriq bergan vakillar tomonidan

20. Respublika darajasidagi tadbiq uchun ilmiy ishlar natajalaridan foydalanish uchun qaysi qo‘mita rahbarlik qiladi?

a) Patent idora qo‘mitasi

v) hokimliklar

s) Fan va texnika davlat qo‘mitasi

d) vazirliklar

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ilmiy ishlari natijalarini tuzish.
2. Ilmiy hisobot tuzishdagi umumiy reja tarkibi.
3. Annotatsiya va referat tuzishda - qo‘yilgan talablar.
4. Ilmiy-texnikaviy hisobotlarning rasmiylashtirilishi.
5. Ilmiy axborotlarni qayta ishlovidagi qo‘llaniladian usullar.
6. Ilmiy hisobot matnini tahrirlash talabi.
7. Ilmiy ishlarni taqrizlash.
8. Ilmiy ishlar natijalarini amaliyotga tadbiq qilish etaplari.
9. Tadbiq etishdagi sinov namunalarini yaratish.
10. Ilmiy ish natijalarini tadbiqini rasmiylashtirish.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Tajriba va kuzatishlarning ahamiyati haqida tahlil qilish.
2. Koxren va Fisher kriteriyalarini tahlil qilish
3. Informativ va metainformativ usullarning mohiyatini tahlil qilish.
4. Davlat sistemasida ilmiy ishlar natijalarini tadbiqining mohiyatini tahlil qilib kelish.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 82-104 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. G‘ulomov S.S., Peregudov A.V. Fan va texnikada sistemani yondashish asoslari - G., Moliya 2002 y. 115 b.

## 8-mashg‘ulot.
## Mavzu: Ixtironi mazmuni va ko‘rinish hollari

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ixtironi mazmuni va ko‘rinish hollari bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Kashfiyot va ixtironing mazmuni va ko‘rinish hollari
2. Ratsionalizatorlik talabnoma tushunchasi va uning mohiyati

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Ilmiy izlanish jarayonida yangiliklar qaysi holatlarda bo‘ladi?
   a) tajriba va eksperiment
   v) kashfiyot va ixtiro
   s) tajriba
   d) eksperiment
2. Kashfiyotning muallifi kim bo‘lib hisoblanadi?
   a) ixtiro qilgan inson
   v) tajriba o‘tkazgan inson
   s) eng oldin xabar bergan inson
   d) kashfiyotni yaratgan inson
3. Kashf qilingan kashfiyot qaysi qo‘mitada ro‘yxatdan o‘tkaziladi?
   a) Davlat ixtiro qo‘mitasida
   v) Patent idorasida
   s) Oliy ta’lim vazirligida
   d) maxsus tashkilotlarda
4. Litsenziya qanday rasmiylashtiriladi?
   a) oddiy ariza holida
   v) tushuntirish xati holida
   s) yozma ko‘rinishida
   d) shartnoma ko‘rinishida
5. Ixtironing nomi nechta so‘zdan oshmasligi kerak?
   a) 5-6 ta
   v) 8-10 ta
   s) 15-20 ta
   d) 2-4 ta

6. Kashfiyot, mualliflik guvohnomasi, ixtirodagi patentdan keyingi texnikaviy yechi qaysi hisoblanadi?

a) texnik hujjat

v) iqtisodiy samaradorlik

s) ratsionalizatorlik talabnomasi

d) angalogik tavsif

7. Ratsionalizatorlik texnikaviy yechimining yangiligi qaysi talablarga ko‘ra tasdiqlanadi va talabnoma beriladi?

a) oldin shu korxonada taklif qilingan ratsionalizatorlik talabnomasi qo‘llanilmagan bo‘lsa

v) korxona buyrug‘i yoki texnikaviy xizmatchilari xizmat yuzasidan qilingan yechimini takrorlamasa

s) hammasi to‘g‘ri

d) oldin shunga o‘xshagan arizalar berilmaganda

8. Quyida keltirilgan iboralarning qaysilari ratsionalizatorlik ishi turiga kirmaydi?

a) xo‘jalikni boshqarish va ishini tashkil etish bo‘yicha bo‘lgan taklif

v) ixtiro va ratsionalazitorlik taklifi tajriba almashinish tartibi bo‘yicha qo‘llash taklifi

s) oldin shunga o‘xshagan arizalar berilmaganda

d) a va v

9. Berilgan arizani ko‘rib chiqishi uchun korxona va vazirlik uchun qanchani tashkil etadi?

a) 15 kun, 1,5 oy

v) 22 kun, 2 oy

s) 10 kun, 6 oy

d) 19 kun, 3 oy

10. Mualliflik guvohnomasi kim tomonidan beriladi?

a) hokimliklar tomonidan

v) ariza-taklifini qabul qilgan korxona tomonidan

s) oliy o‘quv yurtlari tomonidan

d) institutlar tomonidan

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ixtironing yozuviga qo‘yilgan talablar.
2. Ixtironing mazmuni va ko‘rinish hollari.
3. Ratsionalizatorlik talabnomasi tushunchasi va mohiyati.

4. Ratsionalizatorlik talabnomasini tuzish va uning belgisi.
5. Ratsionalizatorlik talabnomasi qabul qilinmaydigan holatlar.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**
**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ixtiro va kashfiyotlarda yozuvning tarkibi qanday tartibda yozilishini tahlil qilish.
2. Vazirliklar korxona va vedomostlari sarf-harajatlariga nimalar kirishini tahli qilish.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 104-127 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - G., “O‘zbekiston” 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” 1992.


## 9-mashg‘ulot.
## Mavzu: Ratsionalizatorlik talabnomasi, ilmiy tavsif va takliflar

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ratsionalizatorlik talabnomasi, ilmiy tavsif va takliflar bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Ixtirochilik, ratsionalizatorlik ishlarini tashkillashtirish iqtisodiy-texnikaviy asoslari
2. Ilmiy-texnikaviy patentlar axborotnomasi

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Muallifning tanlovi bo‘yicha ixtroga qanaqa hujjat beriladi?
   a) moqtov yorlig‘i
   v) unvon
   s) mualliflik guvohnomasi yoki patent
   d) ilmiy daraja

2. Mualliflarning shaxsiy nomoddiy huquqlari turlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) 8
v) 10
s) 5
d) 6

3. Mualliflarning shaxsiy moddiy huquqlari turlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) 5 ta dan ortiq
v) 4 ta dan kam
s) 3 ta
d) 2 ta

4. Ixtirochilik va ratsionalizatorlik ishlarining sarf-harajatlarini moliyalashtirish manbai qanday hisoblarda olib boriladi?

a) korxonada ishlayotgan ixtirochining shaxsiy hisobidan
v) ixtirochi bilan kelishilgan shartnoma asosida
s) har bir tarmoq va tashkilotlarni sraf-harajat sistemasi asosida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lardan foydalaniladi
d) chet el investitsiyalari hisobidan

5. Ixtirochilik va ratsionalizatorlik ishlariga mehnat haqi qanday fond hisobidan beriladi?

a) tuzilgan shartnoma asosida
v) kredit hisobidan
s) ijtimoiy ta’minot hisobidan
d) umumiy maosh fondi hisobidan

**6**. Patent hujjati haqida ibora qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) kashfiyot, ixtiro
v) foydali model, sanoat namunasi,
s) ixtirochilik huquqi haqidagi patent egasi, kashfiyot diplomi, ixtiro guvohnomasi
d) hammasi to‘g‘ri

7. Ilmiy-texnikaviy faoliyat deganda nimani tushunasiz?

a) badiiy asar yozgan ijodkorga aytiladi
v) xizmat yuzasidagi yoki undan tashqari ilmiy izlanishli yoki loyiha – konstruktorlik ishlariga aytiladi
s) kashf qilinmagan ishlarga aytiladi
d) ixtirosi aniqlanmagan shaxsga aytiladi

8. Hozrgi kunda har yili dunyo bo'yicha qancha patent hujjati e'lon qilinadi?

a) 1 mln dan ortiq
v) 200 mingtagacha
s) 50 mingtagacha
d) 70 mingtagacha

9. O'zbekiston qachon Jahon aqliy mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi?

a) 1992 yilda
v) 1995 yilda
s) 1993 yilda
d) 1999 yilda

10. Hozirgi kunda O'zbekiston patent vedomosti qanday nom bilan aytiladi?

a) Fan va texnologiyalar qo'mitasi
v) Patent idorasi
s) patent byulleteni
d) kashfiyot idorasi

**Talabalar bilimini sinash bo'yicha nazorat savollari:**

1. Ixtirochilik va ratsionalizatorlik ishlarining moliyalashtirilishi.
2. Vazirliklar korxona va tashkilotlarning ixtirochilik va ratsionalazitorlik ishlari sarf-harajatlari.
3. Patent axborotlari asosiy manbalarining tavsifi.
4. Ilmiy-texnikaviy patent mohiyati.
5. Patent tushunchasining mohiyati.

**Mavzu bo'yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Yevropa mamlakatlarida patent vedmosotlari haqida ma'lumotlarni bilib kelish.
2. O'zbekiston Patent idorasi talabgorlarga qanday xizmat turlari tashkil qilinganligini tahlil qilib kelish.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 104-127 betlar.
2. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.

3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - G., “O‘zbekiston” 1997.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston” 1992.

## 10-mashg‘ulot.
## Mavzu: Ilmiy mavzudagi kurs ishlari (loyihasi)ni o‘rganish

**Mashg‘ulotning maqsadi:** ilmiy mavzudagi kurs ishlari (loyihasi)ni o‘rganish bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**
1. Ilmiy mavzudagi kurs ishlari (loyihasi)ning bajarilishi
2. Kurs ishlariga qo‘yilgan talablar

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Kurs ishi mavzulari kim tomonidan beriladi?
   a) prorektor tomonidan
   v) tashkilot tomonidan
   s) kafedra tomonidan beriladi
   d) fakultet tomonidan beriladi
2. Kurs ish (loyiha)larga kimlar rahbarlik qiladi?
   a) yordamchi xodimlar
   v) kafedra professor-o‘qituvchilari
   s) laborantlar
   d) fakultet dekanlari
3. Kurs ish (loyiha)lari necha betdan iborat bo‘ladi?
   a) 40 betdan kam bo‘lmasligi
   v) 10 betdan
   s) 15 betdan
   d) 8 betdan
4. Kurs ishini yozilish tartibini sanab bering?
   a) eksperimental (tajriba) amaliy qism
   v) kirish, adabiyotlar tahlili va vazifalar
   s) xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar, qo‘shimcha materiallar
   d) v, a, s

5. Kurs ishini yozishda umumiy hajmi o‘rtacha qancha bet bo‘lishi kerak?

a) 10-15
v) 30-35
s) 50-60
d) 80-90

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Ilmiy mavzudagi bajariladigan kurs ishining mohiyati tushuntiring.
2. Kurs ishlarining topshiriqlarini tuzilishi va berilishini ayting.
3. Kurs ishlarining bajarilish jarayonlari haqida tushuntirib bering.

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Kurs ishi (loyihasi)ni mustaqil ravishda mavzu tanlab, shu asosda yozish.
2. Kurs ishi (loyihasi)ning mavzularini tanlashni o‘rganish va misollar ustida bajarib ko‘rish.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - G., “O‘zbekiston” 1997.
2. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2012 yil 29 oktyabrdagi 418-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan «Magistratura to‘g‘risida»gi Nizomi
4. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 127-1144 betlar.
5. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.

## 11-mashg‘ulot.
## Mavzu: Bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi o‘rganish

**Mashg‘ulotning maqsadi:** bitiruv **malakaviy** ishlarini bajarilishi o‘rganish bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Bakalavriaturada bitiruv malakaviy ishlarini bajarish
2. Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishi

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. Bitiruv malakaviy ishlari kimlar bajaradi?
   - a) Bakalavriaturada ta’lim olayotgan talabalar
   - v) litseylarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar
   - s) tashkilotlarda ishlayotgan xodimlar
   - d) magistraturada ta’lim olayotgan talabalar
2. Bitiruv malakaviy ish mavzulari kim tomonidan beriladi?
   - a) fakultet dekani tomonidan
   - v) prorektor tomonidan
   - s) kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan
   - d) tashkilotlar tomonidan
3. Bitiruv malakaviy ish mavzulari va rahbarlari kim tomonidan tasdiqlanadi?
   - a) Oliy majlis palatasi
   - v) Vazirliklar
   - s) Fakultet dekani
   - d) Oliy o‘quv yurtlarining rektori
4. Bitiruv ishlarining bajarilishida qabul qilingan yechimlarga kim javob beradi?
   - a) kafedra mudiri
   - v) bitiruv ish muallifi, talaba
   - s) kasaba uyushma xodimi
   - d) tashkilot rahbari
5. Talabalar malakaviy bitiruv ishi hajmi qancha bo‘lishi kerak?
   - a) 80-100
   - v) 70-80
   - s) 75-120
   - d) 90-115

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Bitiruv malakaviy ishga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi qanday tanlanadi?
3. Bitiruv malakaviy ishning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishi qanday olib boriladi?.
5. Malakaviy ishning tarkibi qanday tuzilishga ega?
6. Bitiruv malakaviy ishlarni bajarishda nimalarga rioya qilish zarur?

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Bitiruv malakaviy ishlarning mavzularini tanlashni o‘rganish
2. Bitiruv malakaviy ish ustida biron bir mavzuni bajarib ko‘rish.

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - G., “O‘zbekiston” 1997.
2. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2012 yil 29 oktyabrdagi 418-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan «Magistratura to‘g‘risida»gi Nizomi
4. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 127-1144 betlar.
5. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.


## 12-mashg‘ulot.
## Mavzu: Magistrlik dissertatsiyalarini bajarilishi buyicha umumiy tushunchalar

**Mashg‘ulotning maqsadi:** magistrlik dissertatsiyalarini bajarilishi buyicha umumiy tushunchalar bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

**Mashg‘ulot rejasi:**

1. Magistrlik dissertatsiyalarini bajarilishi

2. Kurs ishlari (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini himoya qilish tartibi to‘g‘risida

**Talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni qachon qabul qilingan?

a) 2012 yil 24 iyul
v) 2012 yil 25 iyul
s) 2012 yil 24 iyun
d) 2012 yil 10 may

2. «Magistratura to‘g‘risida»gi Nizom qachon qabul qilingan?

a) 2012 yil 29 dekabr
v) 2012 yil 29 oktyabr
s) 2012 yil 29 noyabr
d) 2012 yil 29 sentyabr

3. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror qachon qabul qilingan?

a) 2008 yil 10 sentyabr
v) 2007 yil 10 oktyabr
s) 2007 yil 10 sentyabr
d) 2007 yil 10 avgust

4. Magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan talablari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

a) davlat ta’lim standartlari talablari darajasida nazariy va amaliy ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda dissertatsiyalarni tayyorlash uchun zaruriy o‘quv-uslubiy va moddiy-texnik bazaning mavjudligi

v) tashkilotlarda davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalariga muvofiq talabalarning amaliyotlarini o‘tkazish uchun oliy ta’lim muassasasi, fakultet yoki kafedralar bilan tashkilotlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarning mavjudligi

s) barcha javoblar to‘g‘ri

d) magistrlar tayyorlash jarayoniga yuqori malakali o‘qituvchilar, fan nomzodi va dotsentlar, fan doktori va professorlar, shuningdek tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilarning jalb etilishi

5. Magistratura talabalarining majburiyatlariga nmalar kiradi?

a) oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejada nazarda tutilgan bilimlarni egallash

v) o'quv rejada nazarda tutilgan topshiriqlarning barcha turlarini, shuningdek dissertatsiyani belgilangan muddatda bajarish

s) oliy ta'lim muassasasining Ustavi, ichki tartib qoidalari va talabalar turar joylari qoidalariga rioya etish

d) barcha javoblar to'g'ri

6. Dissertatsiyaga kimlar rahbarlik qilishi lozim?

a) kafedra assistenti

v) kafedra tadqiqotchilari

s) kafedra professori, dotsenti, fan nomzodi, ishlab chiqarishni malakali mutaxassislari

d) kafedra kabinet mudirlari

7. Dissertatsiyaning mavzusi va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash birinchi o'quv yilining qaysi oylarida amalga oshriladi?

a) avgust-sentyabr

v) sentyabr-dekabr

s) oktyabr-noyabr

d) fevral-mart

8. Dissertatsiyaning tarkibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) mundarija, kirish,

v) titul varaq, annotatsiya,

s) kirish, asosiy qism, xulosa, ilovalar

d) titul varaq, annotatsiya, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar

9. Dissertatsiyaning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari qancha betdan oshmasligi lozim?

a) 100

v) 85

s) 80

d) 75

10. Dissertatsiya chet tlida tayyorlanganda qanday ma'lumot taqdim etilishi kerak?

a) taqriz

v) annotatsiya

s) xulosa

d) ilovalar

11. Talabalarga kurs ish (loyiha)lari nimaga asosan beriladi?
a) talaba xohishiga ko‘ra
v) ta’lim yo‘nalishining ishchi o‘quv rejasiga binoan
s) talaba intilishiga ko‘ra
d) malakaviy amaliyotga ko‘ra

12. Talaba kurs ishi (loyihasi)ni bajargan talaba himoya qilish uchun qayerga topshiradi?
a) institut prorektoriga
v) bo‘limlarga
s) institut kafedrasiga
d) institut o‘quv bo‘limiga

13. Bitiruv malakaiy ish himoyasi qanday holda o‘tkaziladi?
a) DAK ning ochiq majlisida, kamida komissiyaning yarmi qatnashganda
v) talaba tayyor bo‘lganda
s) talaba bitiruv ishini topshirmaganda
d) bitiruv ishi yozilmaganda

14. Bitiruv malakaviy ishining himoyasiga qancha vaqt beriladi?
a) 30-35 daqiqa
v) 5-6 daqiqa
s) 10-15
d) 20-25

15. Talaba bitiruv malakaiy ishini himoya qilgandan keyin DAK tomonidan qanday daraja beriladi?
a) akademik bakalavr
v) fan doktori
s) fan nomzodi
d) assistent

16. Magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoya sanasidan kamida qancha vaqt oldin dastlabki himoyadan o‘tkazilishi lozim?
a) 3 oy
v) 1 oy
s) 2 oy
d) 1,5 oy

17. Magistrlik dissertatsiyasini annotatsiyasi hajmi nechta so‘zdan oshmasligi lozim?

a) 1000 ta so‘z
v) 100 ta so‘z
s) 200 ta so‘z
d) 150 ta so‘z

18. Talabaning dissertatsiya taqdimoti necha 20 daqiqadan oshmagan holda himoya qilinadi?

a) 20
v) 30
s) 5
d) 10

19. Talabaning dissertatsiya taqdimotida qanday masalalar yoritib berilishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) dissertatsiya mavzusining dolzarbligi; dissertatsiyaning maqsad va vazifalari; dissertatsiya tarkibi

v) tadqiqotning nazariy poydevori, ya’ni manbalarni tanqidiy ko‘rib chiqish natijasida hosil bo‘lgan va dissertatsiyaning asosiy qismini tashkil etuvchi tizimlashtirilgan nazariy bilimlar; tadqiqotning metodologik asosining tavsifi

s) tadqiqot olib borilishiga doir farazlar va cheklovchi shart-sharoitlar; talaba tomonidan dissertatsiyani bajarish davomida olingan asosiy natijalar va ularning dissertatsiya mavzusiga to‘g‘ri kelishi, ishonchliligi va qo‘llanilish sohasi; talaba tomonidan olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati; tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollari

a) barcha javoblar to‘g‘ri.

20. Magistrlik dissertatsiyasi institutda necha yil saqlanadi?

a) 20
v) 50
s) 10
d) 15

**Talabalar bilimini sinash bo‘yicha nazorat savollari:**

1. Magistratura to‘g‘risida»gi Nizomi kim tomonidan va qachon tasdiqlangan?
2. Magistraturaning umumiy qoidalari ngimalarni o‘z ichiga oladi?
3. Magistrlarning tayyorgarligiga qanday umumiy talablar qo‘yiladi?

4. O‘qish jarayonida talabalarning huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?

5. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbarlarni tayinlash qanday aalga oshrladi?

6. Magistrlar dissertatsiyasining tarkibi va uning mazmuniga qanday talablar qo‘yiladi?

4. Kurs ishlari (loyiha)larini himoya qilish tarkibi mohiyati nimadan iborat?

5. Bitiruv malakaviy ishlarini himoya qilish tartibini tushuntirib bering.

6. Magistrlik dissertatsiyalarini himoya qilish tartibini tushuntiring.

7. Kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasining reyting tizimida baholash qanday amalga oshriladi?

**Mavzu bo‘yicha yakunlar:**

**Talaba mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlash va ularni misollar usulida bajarib ko‘rish.

2. Kurs ishi, BMI va MD ning himoya qilish tartibinri o‘rganish.

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar


1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori - G., “O‘zbekiston” 1997.

2. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2012 yil 29 oktyabrdagi 418-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan «Magistratura to‘g‘risida»gi Nizomi

4. J.M.Qurbonov. Ilmiy izlanish asoslari. Samarqand, SamISI, 2006 yil 127-1144 betlar.

5. Peregudov A.V., Saidov M.X., Aliqulov D.Ye Ilmiy ijod metodologiyasi - G., Moliya 2002 y., 123 b.

**Ilova 1**

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
## KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI

(O'zbekiston Respublikasi 29.08.97 y. Qonuni bilan tasdiqlangan)

Hujjatning rus tilidagi
matniga qarang

Mazkur Dasturga O'zR 09.04.2007 y. O'RQ-87-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

**Umumiy qoidalar**

**1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islox qilish omillari**

**2. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqislari**

**3. Kadrlar tayyorlashning Milliy modeli**

**4. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

**5. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar**

## UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

# 1. MUAMMOLAR VA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN ISLOX QILISH OMILLARI

1.1. Rivojlanishning erishilgan darajasi
1.2. Kamchiliklar va muammolar
1.3. Islox qilish omillari

## 1.1. RIVOJLANISHNING ERISHILGAN DARAJASI

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni joriy etishni (1992 yil); yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda "bolalar bog'chasi-maktab" majmui tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan.

Yangi tipdagi maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmog'i rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda 238 litsey va 136 gimnaziya ishlab turibdi. "Sog'lom avlod uchun", "Ma'naviyat va ma'rifat", "Iqtisodiy ta'lim", "Qishloq maktabi", "Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tiklash" va boshqa tarmoqdasturlari ro'yobga chiqarilmoqda. Respublika umumta'lim maktablarida 435 mingdan ortiq o'qituvchi ishlamoqda, ularning 73 foizi oliy ma'lumotlidir.

Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. Hozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-hunar ta'limi o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O'zbekiston oliy maktabi tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmoqda; 16 universitetning o'n ikkitasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan huquqiy yo'nalishga o'tkazish ishi olib borilmoqda, o'quv yurtlarining tarmog'i kengaymoqda, universitet ta'limi rivojlanmoqda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmoqda. Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test

va reyting asosida baholashning ilg‘or usullari joriy etilmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga oshgan talablarga muvofiqaspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi. Respublikada qariyb 4 ming aspirant bo‘lib, ulardan 69 foizi oliy ta’lim tizimida va 31 foizi ilmiy-tadqiqot institutlarida ta’lim olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning 8 foizini fan doktorlari va 37 foizini fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz va 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o‘quvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste’dodli o‘smir va qizlarni izlab topish, ularga ko‘maklashish, ularning qobiliyati va iste’dodini o‘stirish bo‘yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarda o‘qitish va stajirovkadan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Fan va ta’lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

Shunga qaramay, sodir etilgan o‘zgaririshlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiqbo‘lishini ta’minlay olmadi.

## 1.2. KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Amaldagi ta’lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotir.

Mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog‘lanmagan.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya ahvoli qoniqarsizligicha qolmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalarning 25 foizigina maktabgacha tarbiya muassasalariga qamrab olingan, xolos. Maktabgacha bolalar muassasalaridan va oiladan maktabga kelgan bolalarning tayyorgarlik darajasi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Maktablarda va boshqa o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonining o‘zidagi va o‘qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qolayapti, oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik yo‘q. 9-11 sinflarni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o‘z o‘rnini aniqlay olmaydi. Ularda o‘zlariga ishonch shakllangan emas. o‘rta maktab bitiruvchilarining 10 foizigina oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirmoqda, xolos.

Majburiy to‘qqiz yillik ta’limga asoslangan o‘n bir yillik umumiy o‘rta ta’lim

ilmiy asoslanmagandir, u o‘quvchilarda kasbga yo‘naltirish va ta’limning amaliy yo‘nalganligi yetarli darajada bo‘lishi hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllanishini ta’minlamayapti. Har yili tayanch maktablarning 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasida hamda kasb-hunar ta’limini davom ettirish uchun talab etilmay qoldirilmoqda.

Ta’lim tizimidagi mavjud umumta’lim va kasb-hunar dasturlari o‘rtasida uzviylik va vorislikning yo‘qligi sababli tayanch va o‘rta maktab bitiruvchilarida kasbga yo‘naltirilganlik va mehnat faoliyati ko‘nikmalari shakllanmay qolayapti. Natijada yigit va qizlar o‘z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy va mehnat moyilliklariga monand hayot yo‘lini belgilab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezmoqdalar.

O‘quv jarayoni bilim darajasi o‘rtacha bo‘lgan o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, ta’limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ishlash kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmayapti. o‘quv dasturlari mafkuraviy sarqitlardan to‘liq xoli bo‘lganicha yo‘q, ularda ma’naviyat va ahloq asoslarini o‘rgatuvchi, huquqiy, estetik bilimlarni beruvchi fanlarga yetarlicha o‘rin berilmayapti.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta’lim muassasalariga o‘tish ko‘proq og‘izda bo‘lib, amalda esa ularda ta’lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o‘quv-uslubiy bazasida, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tmagan o‘qituvchi kadrlar bilan amalga oshirilmoqda.

Bir bosqichli oliy ta’lim mehnat bozori ehtiyojlarini, ishlab chiqarishdagi tarkibiy o‘zgarishlarni va ilg‘or xalqaro tajribani to‘liq hajmda hisobga olmayotir. o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlari yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular kasbiy mehnat bozorining o‘zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashib bormayapti.

Ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar kadrlarni tayyorlash jarayoniga yetarli darajada qo‘shilganlari yo‘q. Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o‘tkazish vazifalari belgilab olinmagan. o‘quvchilarning bilim darajasini baholash tizimi ob’ektivlik va tezkorlikni ta’minlamaydi.

Kasb-hunar ta’limining obro‘si hamda o‘qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Ta’lim xizmati ko‘rsatish va kadrlar tayyorlash sohasida marketing mavjud emas, ta’lim tizimini ko‘p variantli moliyalash sxemasi ishlab chiqilmagan. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi qoniqarsiz ishlamoqda.

O‘qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko‘rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasidagi jami tarbiyachi va pedagoglarning atigi 20 foizi oliy ma’lumotlidir. Maktablarning o‘qituvchilar bilan ta’minlanganligi o‘rtacha 93 foizni tashkil etgani holda, bu ko‘rsatkich ayrim viloyatlarda 77-80 foizdan, muayyan fanlar bo‘yicha esa 50 foizdan oshmaydi.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o‘rtacha yoshi “ulg‘ayib” bormoqda.

Respublika oliy o‘quv yurtlarida 40 yoshga to‘lmagan fan doktorlari jami fan doktorlarining 0,9 foizini, 50 va undan katta yoshdagilari esa 79 foizini tashkil etadi. Fan doktorlari ilmiy darajasiga tasdiqlanganlar o‘rtacha 50, fan nomzodlari esa 36 yoshdadir.

### 1.3. ISLOH QILISH OMILLARI

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi;

milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an’analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

## 2. MILLIY DASTURNING MAQSADI, VAZIFALARI VA UNI RO‘YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI

2.1. Dasturning maqsad va vazifalari
2.2. Dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichlari

### 2.1. DASTURNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mazkur dasturning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

"Ta’lim to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiqta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;

kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

ta’lim oluvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akrreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

## 2.2. DASTURNI RO‘YOBGA CHIQARISH BOSQICHLARI

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

"Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiqta’lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-ahloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;

o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

ta’lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag‘lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta’lim xizmati ko‘rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

ta’lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo‘lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta’lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o‘quvchi o‘rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta’minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish yo‘nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar) Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta’limga o‘tish to‘liq amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta’lim xizmat ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liqishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiqkadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liqta’minlanadi.

Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o‘zini o‘zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liqqamrab olinadi.

## 3. KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY MODELI

3.1. Shaxs
3.2. Davlat va jamiyat
3.3. Uzluksiz ta’lim
3.4. Kadrlar tayyorlash tizimida fan
3.5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi

xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiqbo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

## 3.1. SHAXS

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liqbo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

## 3.2. DAVLAT VA JAMIYAT

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi:

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga;

Majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim olish huquqiga;

Davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;

Ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

Ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;

Sog‘liq va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar ta’lim olishiga kafolat beradilar.

## 3.3. UZLUKSIZ TA’LIM

3.3.1. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari

3.3.2. Uzluksiz ta’limni islox qilish yo‘nalishlari

3.3.3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

### 3.3.1. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta’limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta’limning demokratlashuvi ta’lim va tarbiya uslublarini tanlashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;

ta’limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;

ta’limning ijtimoiylashuvi ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta’limning milliy yo‘naltirilganligi ta’limning milliy tarix, xalqan’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

### 3.3.2. Uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o‘zgartirish;

majburiy umumiy o‘rta ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;

maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;

ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog‘liqyangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ahloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta’lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma’naviy-ahloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;

uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish ;

ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

tub yerli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

### 3.3.3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari

Maktabgacha ta’lim

Umumiy o‘rta ta’lim

O‘rta-maxsus, kasb-xunar ta’limi

Oliy ta’lim
Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
Maktabdan tashqari ta’lim

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

maktabgacha ta’lim;
umumiy o‘rta ta’lim;
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
oliy ta’lim;
oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rta ta’lim (I-IX sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

## Maktabgacha ta’lim

Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha massalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish;

maktabgacha tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

## Umumiy o‘rta ta’lim

To‘qqiz yillik (I-IX sinflar) o‘qishdan iborat umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Ta’limning bu turi boshlang‘ich ta’limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o‘rta ta’lim tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo‘yicha olingan baholar ko‘rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o‘rta ta’limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o‘rta ta’lim olishni ta’minlovchi davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta’lim dasturlari bilan mantiqiy bog‘liqlik hisobga olinishi lozim;

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

hududlarning jo‘g‘rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiqravishda ta’lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiqravishda ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuvini joriy etish;

ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash;

o‘quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

## O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi

Umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiqo‘rta maxsus ta’lim beradi. o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarni o‘qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-xunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

### Oliy ta'lim

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan

tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniqmutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

"Magistr" darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

**Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim**

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestatsyasi natijalariga ko'ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajassi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiqoliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish;

kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

rivojlangan mamlakatlarning ilg'or ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

## Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiqkadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;

professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

## Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalqhunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

## 3.4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA FAN

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o‘z ichiga oladi, bu sohada:

tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o‘rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi:

oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta’minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo‘ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur:

ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo‘li bilan ilm-fanning ta’lim amaliyoti bilan aloqasini ta’minlash chora-tadbilarini ishlab chiqish;

ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘z vaqtida joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta’minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqiot ishlarini olib borish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro‘yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro‘ e’tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta’lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o‘zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta’sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko‘paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko‘rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish.

## 3.5. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA ISHLAB CHIQARISH

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi,

darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

turli saviya va malakadagi mutaxassislarga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

o'z ixtiyoridagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta'lim tizimiga ko'maklashadi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

ta'limni karxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

ishlab-chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash.

## 4. KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

4.1. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash

4.2. Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash,
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

4.3. Ta’lim jarayonini mazmunan islox qilish
4.4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar
4.5. Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar
4.6. Ta’lim tizimini boshqarish
4.7. Kasb-xunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish
4.8. Ta’lim tizimini moliyalash
4.9. Moddiy-texnika ta’minoti
4.10. Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish
4.11. Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish
4.12. Ta’lim soxasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu soxani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
4.13. Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish
4.14. Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish
4.15. Ta’lim va kadrlar tayyorlash soxasidagi xalqaro hamkorlik

Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi:

## 4.1. TA’LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASH

Ta’limning o‘z ichiga maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta’limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha raqobatbardosh ta’lim muassasalari vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarini hududiy yo‘nalishga o‘tkazish va tarkibiy tuzilmasini o‘zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta’minlanadi.

## 4.2. PEDAGOG VA ILMIY-PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta’limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko‘zlovchi tizimi vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo‘llab-quvvatlash ta’minlanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlariga mos yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash bo‘yicha maxsus fakultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun o‘qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

## 4.3. TA'LIM JARAYONINI MAZMUNAN ISLOX QILISH

Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va bilimlarga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

Pedagog kadrlarning obro'-e'tibori, mas'uliyati va kasb ko'nikmasini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv, shu jumladan differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

## 4.4. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MA'RIFIY ISHLAR

Yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro puxta hamkorlik qiladilar. (O'zR 09.04.2007 y. O'RQ-87-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

## 4.5. IQTIDORLI BOLALAR VA ISTE'DODLI YOSHLAR

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniqyo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

## 4.6. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim

muassasalarini tarkibiy jihatdan oʻzgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yoʻli bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning normativ-huquqbazasi rivojlantiriladi. Moliya-xoʻjalik faoliyati olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda oʻquv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan oʻtkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga koʻra ta'lim sohasida faoliyat koʻrsatish huquqi beriladi.

Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini oʻz ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta'lim muassasalarining samarali jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

## 4.7. KASB-HUNAR TA'LIMI SIFATINI NAZORAT QILISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim boshqaruvi organlariga bogʻliq boʻlmagan, kasb-hunar ta'limi sifatini attestatsiyadan oʻtkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol talablariga monand davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi. oʻquv yurtlari faoliyatini, professor-pedagog kadrlar sifatini hamda ta'lim oluvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimi tadbiqetiladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning davlat va jamoat shakllari rivojlantiriladi. Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyalash tizimi takomillashtiriladi.

## 4.8. TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASH

Ta'limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning koʻp variantli (byudjetdan ajratiladigan va byudjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta'lim muassasalarining oʻzini oʻzi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etish ragʻbatlantiriladi.

Respublika fuqarolari uchun keyinchalik ularni toʻlashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta'lim kreditlari berish mexanizmi shakllantiriladi. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqei kuchayib boradi.

Pullik ta'lim xizmatlari koʻrsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qoʻyilgan vazifalarga muvofiqboshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta'lim muassasalarining daromadlari koʻpayishi ta'minlanadi.

## 4.9. MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTI

Har bir mintaqaning demografik va joʻgʻrofiy xususiyatlaridan kelib chiqib, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tarmogʻi barpo etiladi. Ta'lim oluvchilarni oiladan ajralmagan holda oʻqishga imkon qadar koʻproqqamrab olinadi.

Mavjud ta'lim muassasalarini kapital ta'mirlash va yangi ta'lim muassasalari qurish, ularni normativ talablarga muvofiq, zamonaviy texnika va texnologiyalarning

darajasini hisobga olgan holda jihozlanishini ta'minlash choralari ko'riladi.

o'quv-tarbiya muassasalarini zarur uskunalar, inventarlar, ashyolar, ta'limning texnikaviy, dasturiy va didaktik vositalari bilan jihozlash yuzasidan ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish qo'llab-quvvatlanadi. Barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.

## 4.10. TA'LIM TIZIMINING YAXLIT AXBOROT MAKONINI VUJUDGA KELTIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televideniye va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi.

## 4.11. TA'LIM XIZMATI KO'RSATISH BOZORINI RIVOJLANTIRISH

Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan ta'lim xizmati ko'rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalari rivojlantiriladi, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta'lim xizmati ko'rsatish bozori davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Asosiy ta'lim dasturlarida nazarda tutilmagan konsultativ va qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan iborat pullik ta'lim xizmati ko'rsatish tizimi rivojlantiriladi.

## 4.12. TA'LIM SOHASIDA IJTIMOIY KAFOLATLARNI TA'MINLASH HAMDA BU SOHANI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH

Pedagogik faoliyatning obro'-e'tiborini va ijtimoiy maqomini oshirish yuzasidan davlat siyosati ro'yobga chiqariladi. Ta'lim oluvchilarning va pedagoglarning o'qishi, sog'ligi va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash organlari bolalar hamda o'quvchi yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko'radilar. o'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirishga qaratilgan yo'nalishini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta'minlanadi. Ta'lim oluvchilarning tibbiy-gigiyena madaniyatini oshirish, ularning jismoniy tarbiya va sport bobidagi ffaolligini kuchaytirish hamda jismoniy kamolot darajasini oshirish uchun tashkiliy-uslubiy yondashuvlar takomillashtiriladi. Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi.

## 4.13. FAN BILAN TA'LIM JARAYONI ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH

Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg'or amaliy ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi, ta'lim sifati davlat ta'lim standartlariga muvofiqkelishini tashkil etish va ta'minlash maqsadida pedagogika va ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish faollashtiriladi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki rag'batlantiriladi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi ta'minlanadi. Yoshlarning fan-texnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

## 4.14. ISHLAB CHIQARISH VA TA'LIM TIZIMI INTEGRATSIYALASHUVINI RIVOJLANTIRISH

o'quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash rag'batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab-quvvatlanadi. Ilg'or texnologiya sohasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

## 4.15. TA'LIM VA KADRLAR TAYYORLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK

Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi, ilmiy-pedagog kadrlar, talabalar va o'quvchilar almashish kengayadi. Ta'lim to'g'risidagi milliy hujjatlar xalqaro miqyosda e'tirof etilishi uchun asos yaratiladi. Manfaatdor vazirliklar va idoralarning, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalarining kadrlar tayyorlash sohasiga chet el investitsiyalarini bevosita va bilvosita keng jalb qilish borasidagi faoliyat kuchaytiriladi.

## 5. MILLIY DASTURNI RO'YOBGA CHIQARISHGA DOIR TASHKILIY CHORA-TADBIRLAR

Milliy dasturni amalga oshirish maqsadida:

Milliy dasturning yo'nalish va bosqichlarini amalga oshirishning aniq mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minoti ifodalangan yechim va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi;

Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalari belgilanadi;

Milliy dasturning aniq yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlari jalb etiladi;

Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvi tashkil etiladi;

Milliy dasturning monitoringi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritiladi;

ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro'yobga chiqarilishini ta'minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali Milliy dasturning prinsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalarini keng ko'lamda tushuntirish ishlari olib boriladi;

Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqalarining faol ishtiroki ta'minlanadi;

ommaviy axborot vositalarida Milliy dasturning bajarilishi muntazam yoritib boriladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan Respublika

komissiyasi tashkil etiladi, bu Komissiyaning zimmasiga dasturni bajarishga doir barcha ishlar va tadbirlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, shu jumladan quyidagi vazifalar yuklanadi:

uzluksiz ta'limning tegishli turlari uchun davlat ta'lim standartlariga qo'yiladigan umumiy talablarni ishlab chiqish;

umumiy o'rta ta'lim uchun davlat ta'lim standartlarini va boshqa zarur normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iborat ta'lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;

o'rta umumiy ta'limga ega bo'lgan o'quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to'la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarning demografik, jo'g'rofik xususiyatlari va kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;

akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ishlaydigan o'qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bolalar tarbiyasida va ularni maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas'uliyatini oshirish;

ta'lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta'minlash, bu ishga yirik olimlar, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ta'lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlantirish;

professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta'lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus Respublika jamg'armasi tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o'zbekcha-chet tillar lug'atlarini, davlat tilidagi maxsus adabiyotlarni nashr etish;

uzluksiz ta'lim sohasi o'qituvchilari va pedagog kadrlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatiga haqto'lash va rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha ta'lim tizimi boshqaruviga bog'liqbo'lmagan yagona davlat xizmatini tashkil etish;

ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash;

kasb-hunar ta'limi sohasida kadrlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganishni tashkil etish, ta'lim xizmati ko'rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

**ILOVA 2**

## O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
## 29.08.1997 y. N 464-I
## TA`LIM TO`G`RISIDA

### I. UMUMIY QOIDALAR

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o`rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

**2-modda. Ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlari**

Ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog`iston Respublikasida ta'lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog`iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlaridagidan o`zgacha qoidalar belgilangan bo`lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo`llaniladi.

**3-modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari**

Ta'lim o`zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

umumiy o`rta, shuningdek o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo`nalishini: akademik liseyda yoki kasb-hunar kollejida o`qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo`lishni va iste'dodni rag`batlantirish;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg`unlashtirish.

**4-modda. Bilim olish huquqi**

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, o`zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o`qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to`lov evaziga kasb-hunar o`rgatish;

barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o`quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo`lishi;

oilada yoki o`zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditasiyadan o`tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestasiyadan o`tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari o`zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo`lmagan shaxslar bilim olishda o`zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

**5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqi**

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo`lgan shaxslar Pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o`quv yurtlariga ishga qabul qilish o`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug`ullanishiga yo`l qo`yilmaydi.

**6-modda. Ta'lim muassasasining huquqiy maqomi**

Ta'lim muassasasini akkreditasiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestasiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo`lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasasi o`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditasiyasidan o`tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug`ullanish huquqiga ega bo`ladi.

Ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko`rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestasiya natijalariga binoan davlat akkreditasiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o`quv-tarbiya majmuilariga hamda o`quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko`rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shugullanishga haqli.

**7-modda. Davlat ta'lim standartlari**

Davlat ta'lim standartlari umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo`yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O`zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

**8-modda. Ta'lim berish tili**

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili haqidagi O`zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

## II. TA`LIM TIZIMI VA TURLARI

**9-modda. Ta'lim tizimi**

O`zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

davlat standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

ta'lim tizimining faoliyat ko`rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo`lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O`zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

**10-modda. Ta'lim turlari**

O`zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o`rta ta'lim;

o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o`quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta'lim.

**11-modda. Maktabgacha ta'lim**

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog`lom va yetuk, maktabda o`qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko`zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog`chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

**12-modda. Umumiy o`rta ta'lim**

Umumiy o`rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

boshlang`ich ta'lim (I-IV sinflar);

umumiy o`rta ta'lim (I-IX sinflar).

Boshlang`ich ta'lim umumiy o`rta ta'lim olish uchun zarur bo`lgan savodxonlik, bilim va ko`nikmaasoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o`rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko`nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo`naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

**13-modda. O`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi**

O`rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o`rta ta'lim asosida akademik liseyda yoki kasb-hunar kollejida o`qishning yo`nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo`yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo`ladigan o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik lisey o`quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o`stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo`naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o`rta maxsus o`quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo`yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o`rta kasb-hunar o`quv yurtidir.

**14-modda. Oliy ta'lim**

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minladi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o`quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o`rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to`g`risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo`nalishlaridan biri bo`yicha puxta bilim beradigan, o`qish muddati kamida to`rt yil bo`lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo`yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

**15-modda. Oliy o`quv yurtidan keyingi ta'lim**

Oliy o`quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo`lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o`quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o`quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

**16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko`nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**17-modda. Maktabdan tashqari ta'lim**

Bolalar va o`smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo`sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo`nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o`smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o`smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog`lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining faoliyat ko`rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo`yiladi.

**18-modda. Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish**

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko`maklashadi. Bolalarni oilada o`qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo`yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli

davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo`sinda yordam ko`rsatiladi.

**19-modda. Ta'lim to`g`risidagi hujjatlar**

Akkreditasiya qilingan ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to`grisidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to`g`risidagi hujjat oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditasiya qilingan ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim dasturlari bo`yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta'lim muassasalarida o`qitilishi shart bo`lgan va ro`yxati O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo`yiladigan mutaxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma'lumot to`g`risidagi diplomga o`zlashtirilgan fanlar ro`yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo`yilgan baholar yozilgan varaqa ilova qilinadi.

Dissertasiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta'lim standartlariga mos kelgan taqdirda o`zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o`rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma'lumot to`grisidagi hujjatlari belgilangan tartibda o`zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma'lumot to`g`risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta'lim muassasalarida ta'lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo`yicha ishlash huquqini beradi.

## III. TA`LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH

**20-modda. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish**

Ta'lim muassasasida ta'lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta'minlanadi.

**21-modda. Ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish**

Ta'lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to`lanadigan yillik uzaytirilgan ta'tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta'lim muassasalari ish haqiga mo`ljallangan mavjud mablag`lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to`lash va uni rag`batlantirishning turli shakllarini qo`llashga haqli.

**22-modda. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o`qitish**

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o`qitish va ularni boqish davlatning to`la ta'minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar va o`smirlarni o`qitish**

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo`lgan bolalar va o`smirlarni o`qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o`smirlarni ushbu ta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o`quvchilari qisman yoki to`la davlat ta'minotida bo`ladi.

**24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo`lgan shaxslar uchun o`quv-tarbiya muassasalari**

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o`qishga muhtoj bo`lgan bolalar va o`spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan o`quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o`tash muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning ta'lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

## IV. TA`LIM TIZIMINI BOSHQARISH

**25-modda. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari**

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;

ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

ta'lim muassasalarini akkreditasiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestasiyadan o`tkazish tartibini belgilash;

boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga o`zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug`ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to`g`risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

davlat ta'lim standartlari tasdiqlash;

davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to`g`risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

davlat grantlari miqdori va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorlarini tayinlash;

ta'lim oluvchilarni akkreditasiya qilingan bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o`tkazish tartibini belgilash;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

**26-modda. Ta'limni boshqarish bo`yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi**

Ta'limni boshqarish bo`yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro`yobga chiqarish;

ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo`lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o`qitishning ilg`or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o`quv jarayoniga joriy etish;

o`quv va o`quv-uslibiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestasiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to`grisidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to`g`risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

**27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ta'lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;

ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar, (respublika tasarrufida bo`lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro`yxatga oladilar;

o`z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;

ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo`lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

**28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish**

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko`rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

**29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar**

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditasiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to`xtatib qo`yishga haqli.

Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul davlat o`quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

## V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR

**30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari**

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar.

**31-modda. Ta'limni moliyalash**

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablaglari, shuningdek byudjetdan tashqari mablaglar hisobidan amalga oshiriladi.

**32-modda. Ta'limni rivojlantirish fondlari**

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

**33-modda. Xalqaro hamkorlik**

Ta'lim muassasalari ta'lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o`quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o`rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo`shma o`quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

**34-modda. Ta'lim to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ta'lim to`grisidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo`lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo`ladilar.

**O`zbekiston Respublikasining**
**Prezidenti I.Karimov**

**ILOVA 3**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING BUYRUG'I

**MAGISTRATURA TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 51-son, 581-modda)*

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 18 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2405]**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi PF–4456-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 30-son, 346-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 37-38-son, 384-modda) muvofiq buyuraman:

1. Magistratura to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2007 yil 29 dekabrdagi 269-son «Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1765, 2008 yil 4 fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 6-7-son 28-modda);

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2010 yil 22 sentyabrdagi 363-son «Magistratura to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida»gi buyrug'i (ro'yxat raqami 1765-1, 2010 yil 30 sentyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 40-41-son, 347-modda).

3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab o'n kun o'tgandan keyin kuchga kiradi.

**Vazir B. XODIYEV**

Toshkent sh.,
2012 yil 29 oktyabr,
418-son

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2012 yil 29 oktyabrdagi 418-son buyrug'iga

ILOVA

**Magistratura to'g'risidagi nizom**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi PF–4456-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 30-son, 346-modda), shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son

«Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) va 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 37-38-son, 384-modda) qarorlariga muvofiq magistratura faoliyatini tubdan takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligini kuchaytirish, «magistr» darajasini berish bo'yicha dissertatsiya ishi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan mezonlar va talablar hamda xalqaro ta'lim standartlari darajasida oliy ta'lim muassasalarida magistrlar tayyorlash tartibini belgilaydi.

## I bob.Umumiy qoidalar

1. Magistraturaga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 18 iyundagi 118-son qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 24-25-son, 195-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Tegishli mutaxassisliklar bo'yicha magistrlarni tayyorlash kadrlar buyurtmachilarining takliflari asosida, davlat akkreditatsiyasidan o'tgan oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

3. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura ta'lim dasturini tugatgan bitiruvchilarga yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra ta'lim yo'nalishining aniq mutaxassisligi bo'yicha «magistr» akademik darajasi to'g'risidagi davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom beriladi.

Magistratura talabalarining (bundan buyon matnda talaba deb yuritiladi) yakuniy davlat attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 1963, 2009 yil 5 iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 23-son, 267-modda) asosida amalga oshiriladi.

4. Tayanch oliy ta'lim muassasalarida magistratura mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilarining (bundan buyon matnda buyurtmachilar deb yuritiladi) takliflari asosida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik hamda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan dasturlar bo'yicha maqsadli magistrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

5. Oliy ta'lim muassasalari barcha bo'linmalarining magistrlar tayyorlash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish magistratura bo'limi tomonidan kafedra va dekanatlar bilan birga amalga oshiriladi.

6. Magistraturada ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot shartnoma (to'lov-kontrakt) asosida olinadi.

## II bob. Magistrlarning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy talablar

7. Magistrlarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi

qaroriga muvofiq, shuningdek aniq mutaxassislik bo‘yicha magistrlarning tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan malaka talablari ushbu qarorga asosan oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari davlat ta’lim standartlarida belgilanadi.

8. Magistr:

tanlangan mutaxassislik bo‘yicha mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir faoliyatini yuritish;

tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta’limdan keyin katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutida tahsil olish;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadi.

9. Magistr o‘zining mutaxassisligi, ilmiy-faoliyat va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining:

loyiha-konstruktorlik;

loyiha-texnologik;

ilmiy tadqiqot va tajriba;

ishlab chiqarish boshqaruvi;

ilmiy-pedagogik;

ilmiy-ijodiy turlari, shuningdek bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos boshqa mutaxassisliklari bo‘yicha ham shug‘ullanishi mumkin.

**III bob. Magistratura ta’lim dasturi hamda o‘quv jarayonini tashkil etilishi**

10. Magistratura ta’lim dasturlariga nisbatan qo‘yiladigan umumiy talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, shuningdek aniq mutaxassislik bo‘yicha magistratura ta’lim dasturlariga nisbatan qo‘yiladigan talablar ushbu qarorga asosan oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari davlat ta’lim standartlarida belgilanadi.

11. Magistraturada o‘quv jarayoni tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilgan hamda Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashda muhokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlangan mutaxassisliklar bo‘yicha Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari (bundan buyon matnda Davlat ta’lim standartlari deb yuritiladi) va o‘quv rejalari asosida tashkil etiladi.

Tanlov fanlari magistrlik dissertatsiyalarining (bundan buyon matnda dissertatsiya deb yuritiladi) mavzularidan yoki buyurtmachilar tomonidan mutaxassis kadrlarga qo‘yiladigan talablar asosida belgilangan tartibda o‘quv rejaga kiritiladi.

12. Ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini va magistraturada tahsil olish muddatlarini (3 yilligi) inobatga olib, magistraturada o‘qish davrining umumiy hajmi (nazariy ta’lim, attestatsiya, amaliyot,

ta'til va ilmiy faoliyat taqsimoti)ga Vazirlik bilan kelishilgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

13. Talabalarning mustaqil ishi o'quv rejasidagi muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy axborot manbalaridan samarali foydalanishga yo'naltiriladi.

14. Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

davlat ta'lim standartlari talablari darajasida nazariy va amaliy ta'lim, laboratoriya mashg'ulotlari, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda dissertatsiyalarni tayyorlash uchun zaruriy o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazaning mavjudligi;

tashkilotlarda davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq talabalarning amaliyotlarini o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi, fakultet yoki kafedralar bilan tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarning mavjudligi;

magistrlar tayyorlash jarayoniga yuqori malakali o'qituvchilar, fan nomzodi va dotsentlar, fan doktori va professorlar, shuningdek tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilarning jalb etilishi.

15. Magistraturada talabaning mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan namunaviy shakldagi shaxsiy kalendar ish rejasi (bundan buyon matnda ish reja deb yuritiladi) asosida ta'lim olishiga magistratura bo'limi boshlig'i, tegishli fakultet dekani va kafedra mudiri hamda ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) mas'ul hisoblanadi.

Ish reja o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, dissertatsiyani tayyorlash, pedagogik va malakaviy amaliyot faoliyatiga oid tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi.

Ayrim mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini va magistraturada tahsil olish muddatlarini (3 yilligi) inobatga olib ish rejaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

16. Ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqilgan va tegishli kafedrada tasdiqlangan ish reja magistratura bo'limi tavsiyasi asosida oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

17. Talaba ish rejaning bajarilishi bo'yicha har oyda kafedra yig'ilishida rasmiy hisobot beradi. Bunda talabalar hisobotini eshitish jadvali tegishli kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va magistratura bo'limi bilan kelishgan holda tegishli fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi.

Kafedra mudiri talabalarning fanlarni o'zlashtirishi, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari holati bo'yicha har semestrda 1 marta tegishli fakultet ilmiy kengashi (o'quv-uslubiy kengash)ga hisobot berishi lozim.

Talaba ilmiy rahbari ishtirokida semestrlar yakunida tegishli fakultet ilmiy kengashi (o'quv-uslubiy kengash) va magistratura bo'limiga dissertatsiyaning bajarilish holati, ilmiy, uslubiy maqolalar tayyorlanishi, o'tkazilgan ijodiy ishlar va boshqalar haqida yozma hisobot taqdim etadi.

18. Talaba tomonidan ish rejasini tizimli ravishda buzilishi va talaba aybi bilan dissertatsiyaning o'z vaqtida bajarilmasligi holatlarida ilmiy rahbar talabaga ilmiy rahbarlik qilishdan voz kechishi va uni dastlabki himoyaga tavsiya etmasligi mumkin.

## IV bob. Talabalarning huquq va majburiyatlari

19. Talabalar quyidagi huquqlarga ega:

ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy yoki boshqa sohalarning zamonaviy taraqqiyoti darajasiga mos keluvchi bilimlarni olish;

oliy ta'lim muassasasining muhim masalalarini muhokama etish va hal qilishda bevosita ishtirok etish;

axborot-resurs markazidagi axborot resurslari, o'quv, ilmiy, tibbiy va boshqa turdagi xizmatlardan oliy ta'lim muassasasining ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etish;

o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini nashrga taqdim etish;

oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda, ularning ustidan shikoyat qilish;

talabalar uchun belgilangan tartib va miqdordagi stipendiya, shuningdek Davlat stipendiyalari hamda o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlagan stipendiyalarni olish.

Talaba qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

20. Talabalarning majburiyatlari:

oliy ta'limning ta'lim dasturlari va o'quv rejada nazarda tutilgan bilimlarni egallash;

o'quv rejada nazarda tutilgan topshiriqlarning barcha turlarini, shuningdek dissertatsiyani belgilangan muddatda bajarish;

oliy ta'lim muassasasining Ustavi, ichki tartib qoidalari va talabalar turar joylari qoidalariga rioya etish.

Talaba zimmasida qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

## V bob. Dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilishga qo'yiladigan talablar

### 1-§. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbarlarni tayinlash

21. Dissertatsiya talabaning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni yakunlovchi va o'qish davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

22. Dissertatsiyalarning namunaviy mavzulari kafedralarning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan (tashkilotlarning o'z yechimini kutayotgan va istiqbolli masalalarini hisobga olgan holda) o'quv yili boshlanishigacha shakllantiriladi va zaruriyat bo'lganda buyurtmachilar bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

Dissertatsiyalarning mavzulari oliy ta'lim muassasasida shartnoma va loyihalar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining bir qismi bo'yicha ham shakllantirilishi mumkin.

Dissertatsiya mavzusi dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifani yechishga bag'ishlangan, shuningdek mutaxassislikka mos bo'lishi lozim.

23. Dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik oliy ta'lim muassasasi professori, fan doktori, dotsenti yoki fan nomzodi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar olimlari hamda

boshqa tashkilotlarning tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilari tomonidan amalga oshiriladi.

24. Dissertatsiya mavzusi va dissertatsiyaga ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) talabaning dissertatsiya mavzusini tasdiqlash va ilmiy rahbarni tayinlash to‘g‘risidagi arizasi hamda tegishli kafedra taqdimnomasining fakultet ilmiy kengashi (o‘quv-uslubiy kengashi) tomonidan ko‘rib chiqilishi natijasiga ko‘ra 1-o‘quv yilining oktyabr-noyabr oylarida oliy ta’lim muassasasining rektori buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

25. Dissertatsiyaga talaba o‘qiyotgan oliy ta’lim muassasasidan boshqa tashkilotlardan ilmiy rahbar tayinlangan holda, kafedra a’zolaridan biri kafedra mudiri tomonidan mazkur talabaga ilmiy maslahatchi etib tayinlanadi.

Ilmiy maslahatchi dissertatsiyani belgilangan talablar bo‘yicha bajarilishi uchun ilmiy rahbar bilan bir xilda mas’ul hisoblanadi.

26. Bitta professor yoki fan doktori beshtagacha, shuningdek bitta dotsent, fan nomzodi, mutaxassis yoki amaliyotchi uchtagacha dissertatsiyaga rahbarlik qilishi mumkin.

27.Dissertatsiyalarning mavzulari tasdiqlangandan va ilmiy rahbarlar tayinlangandan so‘ng 1 oy muddatda ular haqidagi ma’lumot talabalar familiyasi, ismi, otasining ismi hamda dissertatsiya mavzulari qisqacha maqsadi va vazifalari ko‘rsatilgan holda oliy ta’lim muassasasining rasmiy saytida e’lon qilinadi.

28. Ilmiy rahbar vazifalariga quyidagilar kiradi:

talabaning ish rejasini tuzishda unga yordam berish;

talabaga tizimli ravishda maslahatlar berib borish uchun tegishli jadvalni tuzish. Bunda ilmiy rahbar talabaga haftasiga kamida 1 marta maslahat berishi ko‘zda tutilishi lozim;

tadqiqot uslublarini tanlash va ularni qo‘llashda talabaga ko‘maklashish;

talaba tomonidan ish rejani bajarilishini nazorat qilish va talabani baholab borish;

dastlabki himoya sanasidan kamida 3 kun oldin dissertatsiyaga yozma taqriz berish.

29. Dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarning o‘zgartirilishi talabaning ularni o‘zgartirish sabablari asoslantirilgan yozma arizasi asosida oliy ta’lim muassasasining o‘quv-uslubiy kengashi qarori bilan amalga oshiriladi va oliy ta’lim muassasasining rektori buyrug‘i bilan yangi dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbar tayinlanadi.

Dissertatsiya mavzusini o‘zgartirishda ilmiy rahbarning roziligi hisobga olinadi.

O‘zgartirilgan dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbar to‘g‘risidagi ma’lumot 1 hafta muddatda talabalar familiyasi, ismi, sharifi hamda dissertatsiya mavzulari qisqacha maqsadi va vazifalari ko‘rsatilgan holda oliy ta’lim muassasasining rasmiy saytida e’lon qilinadi.

**2-§. Dissertatsiyaning tarkibi va uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar**

30. Dissertatsiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:

titul varaq;

ikki tildagi (o‘qitish tili va ingliz tilida) dissertatsiyaning qisqacha annotatsiyasi;

mundarija;

kirish;

asosiy qism;

xulosa;

foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

ilovalar (agar mavjud bo‘lsa).

Dissertatsiyaning titul varag‘i, annotatsiyasi, mundarijasi va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatining namunaviy shakli mazkur Nizomning 2—5-ilovalarida keltirilgan.

31. Dissertatsiyaning kirish qismi quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;

tadqiqot ob’ekti va predmetining belgilanishi;

tadqiqot maqsadi va vazifalari;

tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;

mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili;

tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi;

tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;

tadqiqotning ilmiy yangiligi;

dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.

32. Asosiy qism kamida 3 bobdan iborat bo‘lib, bunda tadqiqot masalalari to‘liq yoritilishi lozim.

Asosiy qismning boblari hajm jihatidan o‘zaro mutanosib bo‘lishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

tadqiqot mavzusi bo‘yicha boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlilini;

talaba tomonidan olib borilgan tahliliy ishlarning tavsifi, tadqiqot olib borishda qo‘llanilgan uslublar hamda tadqiqot vositalarining bayonini;

dissertatsiyada talabaning ta’lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy yoki boshqa sohalarning dolzarb muammolarini hal etishga qo‘shgan shaxsiy hissasini;

tadqiqot natijalari va ularning muhokamasini.

33. Dissertatsiyaning xulosa qismida barcha qismlarda bayon etilgan tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot muammosining yechimi ko‘rsatilishi lozim. Ushbu qism 4 betdan oshmasligi kerak.

34. Dissertatsiyaning ilova qismiga uning mazmun mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lmagan, qo‘shimcha sifatida qaraluvchi ma’lumotlar kiritiladi. Bunda ilovaning hajmi dissertatsiya umumiy hajmining 1/3 qismidan oshmasligi lozim.

35. Dissertatsiyada talabalar professional etika qoidalarini buzilishiga (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg‘on sitata keltirish) yo‘l qo‘ymasliklari lozim.

36. Dissertatsiya qoida tariqasida, standart varaqda 1,5 qator oralig‘ida yozilishi lozim, har bir bet hoshiyasi: yuqoridan, pastdan va o‘ngdan 2 sm, chapdan 3 sm bo‘lishi, xatboshi besh yoki olti belgiga teng va bir xilda bo‘lishi lozim.

Dissertatsiya matnini kompyuter vositasida bosib chiqarishda «Times New Roman» 14 o‘lchamli shriftida yoki shunga o‘xshash shriftni qo‘llagan holda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi.

37. Dissertatsiyaning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashqari 80 betdan oshmasligi lozim.

38. Dissertatsiya talaba o‘qigan tilda (kafedra yoki magistratura bo‘limi tavsiyasiga muvofiq chet tilda ham) yozilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan dissertatsiyaga davlat tilida annotatsiya ilova etiladi hamda dastlabki va rasmiy himoyalar tarjima bilan o‘tkaziladi.

39. Magistratura mutaxassisligi xususiyatidan kelib chiqqan holda dissertatsiya tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi o‘zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin.

**3-§. Dissertatsiyani dastlabki va rasmiy himoya qilish**

40. Dissertatsiya rasmiy himoya sanasidan kamida 1 oy oldin dastlabki himoyadan o‘tkazilishi lozim.

Talabalar kafedra tomonidan tuzilgan komissiya va ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida dastlabki himoyadan o‘tadi.

41. Dastlabki himoyaga kirgunga qadar talaba dissertatsiya mavzusiga doir kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezisga, ichki va tashqi hamda ilmiy rahbar taqriziga ega bo‘lishi talab etiladi.

Talabalarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq izlanish natijalari ilmiy nashrlarda va ta’lim muassasalarining rasmiy saytlarida chop etilishi mumkin.

Dastlabki himoyaga boshqa kafedralar va oliy ta’lim muassasalaridan mutaxassislarni taklif etish mumkin. Dastlabki himoya natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

42. Ichki va tashqi taqrizchilarni oliy ta’lim muassasasining tegishli kafedrasi tavsiya etadi va ularning ro‘yxati oliy ta’lim muassasasining ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi.

43. Taqrizchilar vazifalariga quyidagilar kiradi:

taqriz yozish uchun unga taqdim etilgan dissertatsiyada professional etika qoidalarining buzilish holatlarini(plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg‘on sitata keltirish) aniqlash va dissertatsiyaning dolzarbligi, ilmiyligi va yakunlanganligi haqida xulosalar berish;

belgilangan dastlabki himoya sanasidan kamida 3 kun oldin dissertatsiyaga yozma taqriz berish.

44. Taqrizchi dissertatsiyada talaba tomonidan professional etika qoidalari buzilganligini (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish hamda yolg‘on sitata keltirish) aniqlagan taqdirda, mazkur qoida buzilishlarini qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, mazkur dissertatsiyani dastlabki himoyaga tavsiya etmaslik haqida taqriz beradi.

45. Talaba tomonidan dissertatsiya dastlabki himoya sanasiga qadar kafedraga bosma muqovalangan hamda elektron shaklda taqdim etilishi lozim.

46. Dastlabki himoyadan o‘tmagan, shuningdek uzrsiz sabablarga ko‘ra rasmiy himoyaga taqdim etish muddati va tartibi buzilgan dissertatsiyalar rasmiy himoya qilishga ruxsat etilmaydi. Bunda uzrli sabablar deb talabaning kasalligi

(kasallik varaqasi mavjud bo‘lgan holda) yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga muvofiq oliy ta’lim muassasasiga kelish imkoniyati cheklangan holatlar tushuniladi.

47. Dastlabki himoyadan keyin 1 hafta muddatda himoyadan o‘tgan dissertatsiyaning talaba familiyasi, ismi, otasining ismi hamda ilmiy rahbari, mutaxassisligi ko‘rsatilgan holda annotatsiyasi oliy ta’lim muassasasining rasmiy saytida e’lon qilinadi. Dissertatsiyaning annotatsiyasi tanlangan mavzuning dolzarbligini, tadqiqotning maqsadi va vazifasini, ob’ekti va predmetini hamda tadqiqot bosqichlarining qisqacha tavsifi va metodologik asoslarini o‘z ichiga olishi kerak. Annotatsiya hajmi 200 so‘zdan oshmasligi lozim.

48. Dissertatsiyalarning rasmiy himoya sanasi oliy ta’lim muassasasi rektori buyrug‘i bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

49. Dissertatsiya rasmiy himoyaga taqdim etilganidan keyin unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga ruxsat etilmaydi.

50. Tarkibi tasarrufida oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar bilan kelishilgan holda magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha shakllantiriladigan va Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan Magistrlik dissertatsiyalarni himoya qilish komissiyalar tomonidan (bundan buyon matnda Komissiya deb yuritiladi) dissertatsiyaning rasmiy himoyasi o‘tkaziladi.

Rasmiy himoya natijalari Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

51. Dissertatsiyaning rasmiy himoyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

talabaning taqdimotini;

talabaning Komissiya a’zolarini savollariga bergan javoblarini;

Komissiya a’zolarining dissertatsiya bo‘yicha sharhlarini;

Komissiya a’zolari tomonidan dissertatsiyaga berilgan tavsiya va e’tirozlarga talabaning bildirgan fikrlarini.

52. Talabaning dissertatsiya taqdimoti 20 daqiqadan oshmagan holda elektron shakldagi materiallar bilan boyitilishi lozim.

53. Talabaning dissertatsiya taqdimotida quyidagi masalalar yoritib berilishi lozim:

dissertatsiya mavzusining dolzarbligi;

dissertatsiyaning maqsad va vazifalari;

dissertatsiya tarkibi;

tadqiqotning nazariy poydevori, ya’ni manbalarni tanqidiy ko‘rib chiqish natijasida hosil bo‘lgan va dissertatsiyaning asosiy qismini tashkil etuvchi tizimlashtirilgan nazariy bilimlar;

tadqiqotning metodologik asosining tavsifi;

tadqiqot olib borilishiga doir farazlar va cheklovchi shart-sharoitlar;

talaba tomonidan dissertatsiyani bajarish davomida olingan asosiy natijalar va ularning dissertatsiya mavzusiga to‘g‘ri kelishi, ishonchliligi va qo‘llanilish sohasi;

talaba tomonidan olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati;

tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollari.

54. Talabadan taqdimotda o‘rganilgan muammoga tegishli masalalarni ilgari surish va ularni hal etish, umumiy tendensiyalar va muayyan holatlarni tizimli

ravishda o‘rganish, hodisalarni tadqiq etish, tahlil qilish va prognozlashning metodik uslublarini bilishi va qo‘llay olishini namoyon etishi talab etiladi.

55. Rasmiy himoyada Komissiyaning har bir a’zosi talabani quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, undagi masalalarning aniqligi hamda ularning mavzuga aloqadorligi;

dissertatsiya mavzusini ochib berishda hamda undagi masalalarni hal qilishda talabaning mustaqil yondashuvi;

dissertatsiyani yoritishda foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar, shuningdek chet tildagi manbalarni tanqidiy tahlilining to‘liqligi va chuqurligi;

dissertatsiyaning maqsadi, undagi masalalar va farazlarni shakllantirishda nazariy yondashuvlarning ishlatilish darajasi;

dissertatsiyadagi masalalarni hal qilishda sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanishning asoslanganligi hamda foydalanilgan tadqiqot usullari imkoniyatlari va chegaralarining tanqidiy tahlili;

talaba tomonidan yig‘ilgan va shakllantirilgan birlamchi hamda ikkilamchi ma’lumotlarning hajmi va yangilik darajasi, ularning dissertatsiyadagi masalalarga mosligining asoslanishi, ularni to‘plash usullarining tanqidiy tahlili;

talaba tomonidan to‘plangan va shakllantirilgan ma’lumotlar asosida olingan natijalarning dissertatsiyaga mosligi, ishonchliligi va qo‘llanilish sohalarining mavjudligi;

olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni dissertatsiyaning nazariy qismiga aloqadorligi hamda maqsad va vazifalariga mosligi;

dissertatsiyaning ilmiy yangilik darajasi va uning natijalarini mahalliy hamda xalqaro amaliyotdagi ahamiyati;

tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollarini talabaning mohiyatan tushunib yetganligi;

dissertatsiya yozilishida nazariy va amaliy qismlarining o‘zaro mantiqiy bog‘liqligi va tizimliligi.

Rasmiy himoyada Komissiya a’zolari tomonidan talabaning ilmiy munozara olib borishi hamda auditoriya bilan ishlash madaniyati darajasi ham hisobga olinadi.

56. Ilmiy rahbar va taqrizchilarning taqrizlaridagi, shuningdek Komissiya har bir a’zosining yuqorida qayd etilgan mezonlarga ko‘ra qo‘ygan baholari umumlashtirilgan holda dissertatsiyaga yakuniy baho qo‘yiladi.

57. Dissertatsiya rasmiy himoyaga qo‘yilmagan yoki unga qoniqarsiz baho qo‘yilgan taqdirda talaba uni tayyorlash va himoya qilish tartib qoidalariga rioya qilgan holda keyingi 3 o‘quv yili davomida qayta himoya qilishi mumkin. Ushbu muddat o‘tgandan so‘ng dissertatsiyani himoya qilishga ruxsat berilmaydi.

58. Rasmiy himoyadan o‘tmagan dissertatsiya masalasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashi yig‘ilishida muhokama etiladi. Bunda oliy ta’lim muassasasining ilmiy kengashi dissertatsiyani himoyadan o‘tmaganligiga ilmiy rahbarning uzrsiz sabablarga ko‘ra qilgan kamchiligi yoki mas’uliyatsizligi oqibatida yo‘l qo‘yilgan deb qaror qilgan taqdirda,

ushbu ilmiy rahbar dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik qilish huquqidan keyingi 3 yilgacha bo‘lgan muddatga mahrum etilishi mumkin.

59. Rasmiy himoyadan o‘tgan dissertatsiyalar oliy ta’lim muassasasida kamida 10 yil saqlanishi lozim.

## VI bob. Talaba faoliyatining samaradorligi monitoringi

60. Talabalar tayyorlash sifatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq belgilanadi.

61. Vazirlik tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar bilan hamkorlikda har o‘quv yilining aprel-may oylarida talabalar faoliyatining samaradorligi monitoringini (bundan buyon matnda Monitoring deb yuritiladi) olib boradi.

62. Monitoring jarayonida talabalar faoliyati quyidagi mezonlar asosida tahlil etiladi:

a) magistraturaning 1-kursida:

ish rejaning mavjudligi va uning rasmiylashtirilishi;

ish rejasidagi topshiriqlarning muddatida bajarilganligi;

talabaning bitta ilmiy maqola yoki tezis chop etganligi;

talabaning ilmiy seminarlarda ishtirok etishi;

talabaning fanlarni o‘zlashtirish darajasi.

b) magistraturaning 2-kursida:

ish rejasidagi topshiriqlarning muddatida bajarilganligi;

magistraturada o‘qish muddati davomida kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezis chop etganligi;

dissertatsiyalarning dastlabki himoyasi o‘tkazilgan taqdirda dissertatsiyaning dastlabki himoyadan muvaffaqiyatli o‘tganligi;

o‘quv rejasidagi barcha fanlarni o‘zlashtirganligi.

63. Ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini va magistraturada tahsil olish muddatlarini (3 yilligi) inobatga olib ushbu mezonlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Monitoringni o‘tkazish jarayonida talabalar bilan suhbat o‘tkazilib, tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar beriladi.

64. Monitoring natijalari oliy ta’lim muassasasi yoki tegishli fakultet o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqiladi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi hamda ushbu o‘quv-uslubiy kengash tavsiyasiga muvofiq talabaning ish rejasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin. Bunda o‘quv-uslubiy kengash tavsiyasiga muvofiq talabaning ish rejasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish magistraturaning 2-kurs, shuningdek magistraturada tahsil olish muddati 3 yil bo‘lgan holatlarda 3-kurs talabalariga tatbiq etilmaydi.

65. Monitoring natijalari oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumlashtirilgan holda Vazirlikda muhokama etiladi.

## VII bob. Yakuniy qoidalar

66. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

67. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi, «O‘zbekiston temir yo‘llari» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi bilan kelishilgan.

**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi direktori B. ISMAILOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi G. BAXADIROV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Xalq ta’limi vaziri T. SHIRINOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Sog‘liqni saqlash vaziri A. ALIMOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Qishloq va suv xo‘jaligi vaziri Z. RUZIYEV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Madaniyat va sport ishlari vaziri T. QUZIYEV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo‘mitasi raisi X. MIRZAXIDOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**«O‘zbekiston temir yo‘llari» DAK raisi O. RAMATOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Davlat soliq qo‘mitasi raisi B. PARPIYEV**

2012 yil 25 oktyabr,

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi A. NURITDINOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**Tashqi ishlar vaziri A. KAMILOV**

2012 yil 25 oktyabr,

**«Navoiy kon-metallurgiya kombinati» DK bosh direktori Q. SANAQULOV**

2012 yil 25 oktyabr,

Magistratura to‘g‘risidagi nizomga

1-ILOVA

«NAMUNA»

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Magistratura bo‘limi boshlig‘i «_____»
«_____»____________20 y.

____________________________________________ning
(talabaning F.I.O.)
______________________________ mutaxassisligi bo‘yicha
20__–20__ o‘quv yillariga mo‘ljallagan

SHAXSIY KALENDAR ISH REJASI

Mazkur ish reja _____________________ kafedrasining 20___ yil «____»________dagi ____-son yig‘ilishida muhokama qilindi.

| | | |
|---|---|---|
| Kafedra mudiri: | ______________________ | ______________________ |
| | (F.I.O.) | (imzo) |
| Reja bilan tanishtirildi: | | |
| Magistratura talabasi | ______________________ | ______________________ |
| | (F.I.O.) | (imzo) |
| Ilmiy rahbar: | ______________________ | ______________________ |
| | (F.I.O.) | (imzo) |

Ish rejadagi «Talabaning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, dissertatsiyani tayyorlash, pedagogik va malakaviy amaliyot faoliyati bo‘yicha kalendar ish rejasi» magistratura talabasining butun magistraturada o‘qishi davomidagi faoliyatini tashkil etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u magistratura talabasini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha majburiy faoliyati va ularni bajarilish muddatlarini belgilab beradi:

o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlar;

ilmiy-tadqiqot ishlari;

ilmiy-pedagogik ishlar;

malakaviy amaliyot faoliyati.

«Magistrlik dissertatsiyasini bajarishning kalendar rejasi» magistrlik dissertatsiyasini magistraturada o‘qish davomida tayyorlashga mo‘ljallangan ishlar

ketma-ketligi va ularning tarkibini belgilaydi. Rejada qayd etiladigan ishlarni talaba ilmiy rahbar bilan kelishgan holda tayyorlashi va bayon etishi kerak.

## I bob. Talabaning o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, pedagogik va malakaviy amaliyot faoliyati bo‘yicha kalendar ish rejasi

### 1. O‘quv va o‘quv-uslubiy ishlar

| № | Chora-tadbir nomi | Bajarilish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | Nazariy ta’lim | 1—3-semestrlar | 1—3-semestrlar haftasiga ___soatdan |
| 2. | Mustaqil ta’lim uchun o‘quv topshiriqlarini bajarilishi | O‘quv davri mobaynida | Har bir fanning o‘quv rejasiga muvofiq |
| 3. | O‘quv fanlaridan referat, ma’ruzalar tayyorlash | 1—3-semestrlar | Har bir fanning o‘quv rejasiga muvofiq |
| 4. | Mutaxassislik fanlar bo‘yicha:<br>— O‘quv topshiriqlarni to‘plami | 3-semestr oxirigacha | Aniq bir o‘quv fani bo‘yicha |
| | — Masala va topshiriqlar to‘plami | | Aniq bir o‘quv fani bo‘yicha |
| | — Keyslar ishlab chiqish | | Shartnoma tuzilgan tashkilotlar materiallari asosida |
| 5. | Davlat attestatsiyasidan o‘tish | 4-semestr tugaganidan so‘ng | O‘quv jarayoni jadvali asosida |

### 2. Ilmiy-tadqiqot ishlari

| T/r | Chora-tadbir nomi | Bajarilish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | Dissertatsiyasini tanlash va mavzusini tasdiqlatish | 1 semestr boshida | Ilmiy rahbar maslahati bo‘yicha |
| 2. | Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo‘yicha maqolalarni tayyorlash va nashr etish | O‘quv davri mobaynida (dastlabki himoyaga kirgunga qadar) | 2 ta maqoladan kam emas (tezis) |
| 3. | Amaliyotga bog‘liq muammolarni o‘rganib, ularni ilmiy hal qilish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish | 1—3 semestr | |
| 4. | Tanlangan tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba sinov ishlarini o‘tkazish | O‘quv davri mobaynida | Tadqiqot dasturiga muvofiq |
| 5. | Magistrlik dissertatsiyasini tugallash | 4 semestr oxirida | |
| 6. | Magistrlik dissertatsiyasini himoyalash | 4 semestr oxirida | O‘quv jarayoni o‘quv grafigi bo‘yicha |
| 7. | Kafedraning ilmiy va innovatsiya tadqiqotlari va xo‘jalik shartnoma ishlarida ishtirok etish | O‘quv davri mobaynida | Ilmiy rahbar maslahati bo‘yicha |
| 8. | Talabalar va yosh olimlar ilmiy konferensiyalarida ishtirok etish | O‘quv davri mobaynida | Ilmiy ma’ruza yoki maqola bilan |
| 9. | Talabalar fan olimpiadalarida ishtirok etish | O‘quv davri mobaynida | Ilmiy rahbar tavsiyasi asosida |
| 10. | Ilmiy to‘garak va seminar ishlarida faol | O‘quv davri | Tadqiqot mavzusi bo‘yicha |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ishtirok etish | mobaynida | |

**3. Ilmiy-pedagogik ishlar**

| № | Chora-tadbir nomi | Bajarilish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | Kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish | 1—3 semestr | O‘quv mashg‘ulotlari bakalavriat (kollej, litsey) da ilmiy rahbar maslahati va kafedraning qarori bo‘yicha o‘tkaziladi |
| 2. | Akademik guruhlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish (ilmiy rahbar yoki yetakchi professor-o‘qituvchilar ishtirokida) | | |
| 3. | Fanlar bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘quv-uslubiy to‘plamlarni tayyorlashda ishtirok etish | 2-3 semestr | Aniq o‘quv fani bo‘yicha |
| 4. | Bakalavriat talabalari bilan o‘quv-maslahat va tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish | 1—3 semestr | Fakultet dekanati tavsiyasi asosida |

**4. Malakaviy amaliyot faoliyati**

| № | Chora-tadbir nomi | Bajarilish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | Ilmiy-tadqiqot va malakaviy amaliyot faoliyatini o‘tkazish uchun tashkilot (korxona, bo‘linma) bilan shartnoma tuzish. (Shartnomani tuzishda oliy ta’lim muassasasi rahbariyati va ilmiy rahbar magistratura talabasiga amaliy yordam ko‘rsatadi) | Magistraturaga qabul qilinganligi to‘g‘risida buyruq rasmiylashtirilgandan so‘ng 1 oy mobaynida | Magistratura talabasi butun o‘quv davri mobaynida ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatini bevosita shartnoma tuzilgan tashkilot (korxona, bo‘linma) bilan aloqada amalga oshiradi |
| 2. | Shartnoma tuzilgan tashkilotda malakaviy amaliyot o‘tish | 4 semestr | O‘quv reja asosida |
| 3. | Tadqiqot mavzusi bo‘yicha taqdimotni tayyorlash | 4 semestr, malakaviy amaliyot tugaganidan so‘ng | Amaliyot rahbari ishtirokida, grafik bo‘yicha |

## II bob. Magistrlik dissertatsiyasini bajarishning kalendar rejasi

| № | Ish bosqichlari va tadbirlarning asosiy mazmuni | Bajarish muddati | Natijalar: bajarilganligi bo‘yicha belgi |
|---|---|---|---|
| | **1. Tadqiqot o‘tkazishga tayyorgarlik** | | |
| 1. | Tadqiqot ob’ekti va mavzusini aniqlash | | |
| 2. | Tadqiqot mavzusini tanlash | | |
| 3. | Tanlangan mavzu bo‘yicha bibliografiya va axborot resurslar, kutubxona fondlari va elektron resurslari bilan tanishish<br><br>Bibliografik ro‘yxat tuzish. | | |
| 4. | Kafedrada mavzuni tasdiqlatish | | |
| 5. | Axborot manbalari va hujjatlarini (adabiyot va elektron resurslar) chuqur o‘rganish<br><br>Bibliografik ro‘yxatga qo‘shimcha adabiyotlarni kiritish | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Konspekt, annotatsiya va taqrizlarni tayyorlash<br><br>**Bibliografik tahlilni tuzish.**<br>Tadqiqot uchun zarur bo‘lgan usul va yo‘nalishlar ro‘yxatini tuzish<br><br>Keltirilgan usul va yo‘nalishlarni o‘rganib chiqish, ulardan asosiy va yordamchilarini shaxsiy tadqiqot o‘tkazish uchun tanlash | | |
| 6. | Ilmiy-tadqiqot muammosini shakllantirish va tavsiflash<br><br>Tadqiqot jarayonida javoblar olinadigan savollarni tuzish | | |
| 7. | Tadqiqot dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyatga egaligini asoslash.<br><br>Tadqiqot mavzusi bo‘yicha mavjud vaziyatlar klassifikatsiyasi va nuqtai nazarlar qiyosiy tahlilini amalga oshirish. Xulosalarda muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy (nazariy) jihatdan yangilik alomatlari, tadqiqot mavzusini dolzarbligini aks ettirish<br><br>Zamonaviy holatdagi masalalar tahlilini amalda ko‘rish. Xulosalarda amaliy (qo‘shimcha) jihatdan yangilik alomatlari, tadqiqot mavzusining dolzarbligini aks ettirish | | |
| 8. | Tadqiqot ob’ektining farqlovchi xususiyatlarini aniqlash va shakllantirish | | |
| 9. | Ishchi gipotezani surish va shakllantirish | | |
| 10. | Hal bo‘lishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni shakllantirish va maqsadni hamda javob olishi kerak bo‘lgan tadqiqot savollarini aniqlash. | | |
| 11. | Tadqiqot hajmi, nazariy va tajribaviy materiallarni tanlash tamoyil (prinsipi)ni aniqlash | | |
| 12. | Terminologiyani aniqlash. Qo‘llaniladigan terminlar (atamalar) kartotekasini ochish, kartochkalarga ularning mazmunini kiritib borish | | |
| **II. Ilmiy-tadqiqot ishlarni rejalashtirish** | | | |
| 1. | Tadqiqot kalendar (dastur) rejasini tuzish<br>Tadqiqot bosqichlarini ketma-ketligini va bajarilish muddatini, hamda uning ayrim bosqichlari va masalalarini aniqlash.<br><br>**Tushuntirish xatini tayyorlash.** | | |
| 2. | Magistrlik dissertatsiyasining struktura-mantiqiy sxemasini tuzish | | |
| **III. Tadqiqotni amalga oshirish: materiallar yig‘ish (yoki tajriba sinovlar o‘tkazish)** | | | |
| 1. | Maqsad, masalalar va gipotezaga muvofiq tadqiqot usulini tanlash va asoslamoq (protsedura uslubi, usuli, asboblari) | | |
| 2. | Tadqiqot terminologiyasini aniqlash: asosiy tushunchalarni aniqlanishini tahlil etish, solishtirish, klassifikatsiyalash, umumlashtirish va boshqalar orqali terminologiyaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Natijalarni qayd qilish va rasmiylashtirish. | | |
| 3. | Tanlangan ilmiy uslublarni qo‘llab, taklif etilayotgan, olg‘a surilayotgan gipotezani isbotlaydigan, yangi ilmiy axborotni tadqiqot o‘tkazish asosida olish:<br><br>Tajriba sinovlarni o‘tkazish. Olingan ma’lumotlarni dastlabki tizimlashtirishini o‘tkazish<br><br>Tajriba sinov materiallarini yig‘ish<br><br>Ma’lumotlarni umumlashtirish, mavjud ma’lumotlar bilan solishtirish, tahlil qilish va interpertatsiyasini o‘tkazish, ular qanday ma’no berishini aniqlash | | |
| 4. | Olingan ma’lumot (natijalar)ni yangilik, ob’ektivlik va shubhasizlik, ishonchlilik va butunlik (to‘liqlik) talablariga javob berishini tekshirish. (Bunda matematik statistika usullarini qo‘llash) | | |
| 5. | Ma’lumot va natijalar tahlili tugallangan degan qarorga kelish:<br>a) Asosiy ish qismini tugagan deb bilish;<br>b) Ma’lumotlarni qo‘shimcha yig‘ish va tanlab olish (saralash) | | |
| 6. | Dissertatsiyaning asosiy qismini yozish | | |
| 7. | Har bir ish qismini (bo‘limini) tugallangani va butun ish hajmidagi ishonchlilik dalillarini qayta tekshirish. | | |
| 8. | Xulosalar va takliflarni shakllantirish:<br>a) qo‘yilgan muammoning mavjudligi va yechimini izohlash;<br>b) natijalarning amaliy ahamiyati va olingan natijalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish | | |
| 9. | Xulosa yozish | | |
| 10. | Olg‘a surilgan gipotezani olingan xulosalar bilan solishtirish | | |
| 11. | Maqsad ta’riflanishi, asosiy masalalar va ularni xulosalarga mosligini aniqlash | | |
| 12. | Dissertatsiya ishiga kirish qismini yozish | | |
| **IV. Ilmiy-tadqiqot ishlarni natijalarini rasmiylashtirish** | | | |
| 1. | Ish tekstini dastlabki variantini tayyorlash | | |
| 2. | Ishni ilmiy rahbarga taqdim etish | | |
| 3. | Ilmiy rahbarning o‘zgartirishlarini fikr-mulohazalarini hisobga olib ishni qayta ko‘rib chiqish hamda ishga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish | | |
| 4. | Dissertatsiyani talabga muvofiq rasmiylashtirish | | |
| **V. Ilmiy-tadqiqot ishning natijalarini himoyaga taqdim etish** | | | |
| 1. | Dissertatsiyaga annotatsiya tayyorlash | | |
| 2. | Dissertatsiyaga 2 ta (ichki va tashqi) taqriz olish | | |
| 3. | Dissertatsiyaga ilmiy rahbarning taqrizini olish | | |
| 4. | Kafedra mudiridan dissertatsiyani himoya qilishga ruxsat olish | | |
| 5. | Ko‘pi bilan 20 daqiqalik ma’ruza va taqdimot materiallarini (slaydlar) tayyorlash | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6. | Dissertatsiya ishini dastlabki himoyasini kafedra(lar)dan (ishlab chiqarish korxona-tashkilotdan) o'tish | | |
| 7. | Dastlabki himoyada berilgan taklif va tavsiyalarning zarur qismlarini dissertatsiya ishiga kiritish | | |
| 8. | Rasmiy himoya uchun tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va topshirish | | |

Ushbu ish reja shakli oliy ta'lim muassasasi (fakultet)ning o'quv-uslubiy kengash yig'ilishida muhokama qilingan va 20___ yil _____ ________da _____-son maqullangan.

Magistratura to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

«NAMUNA»

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Fakultet ________________ Magistratura talabasi_____________
Kafedra _________________ Ilmiy rahbar ____________________
O'quv yili _______________ Mutaxassisligi __________________

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

— mavzuning dolzarbligi;
— ishning maqsadi va vazifalari;
— tadqiqot ob'ekti va predmeti;
— tadqiqot uslubiyati va uslublari;
— tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi;
— tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi;
— ish tuzilishi va tarkibi;
— bajarilgan ishning asosiy natijalari;
— xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.

_______________________________________________________________

Ilmiy rahbar ______________________
(imzo)

Magistratura talabasi ______________________
(imzo)

Magistratura to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

«NAMUNA»

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida

UDK

UMAROV RASUL TEMUROVICH

Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish davrida tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish yo‘llari (Westone Asiya misolida)

5A340404 - Xalqaro biznes

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
i.f.n. Yunusxodjayev A.

Magistratura to‘g‘risidagi nizomga
4-ILOVA

«NAMUNA»

**M U N D A R I J A**


| | | |
|---|---|---|
| | **Kirish** . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 3 |
| **I bob.** | **Tashkilot tashqi iqtisodiy faoliyatining nazariy asoslari** . . . . . | 8 |
| **1.** | Tashkilotning tashqi iqtisodiy faoliyati va uning turlari. .. . . . . . . . . | 8 |
| **2.** | Tashkilotning xorijiy bozorlarga kirish va u yerdagi marketing strategiyalari . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 15 |
| **3.** | Tashkilotning marketing xizmatini tashkil etish tamoyillari... . . . . . . | 26 |
| | **I bob** bo‘yicha xulosa . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | |
| **II bob.** | **«WESTONE AZIYA» MCHJ faoliyatining tahlili ..** .. .. .. .. . . . . . . . | 36 |
| **1.** | «Westone Aziya» tashkilot faoliyati, tarkibiy tuzilishi va boshqaruv tizimi...................................................................... | 36 |
| **2.** | «Westone Aziya» tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili ............................................................................ | 40 |
| **3.** | «Westone Aziya» tashkilotning tashqi iqtisodiy va marketing faoliyati . . . . ......................................................................... | 49 |
| | **II bob** bo‘yicha xulosa . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | |
| **III bob.** | **Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish davrida «WESTONE AZIYA» MCHJning tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish yo‘llari** . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 60 |
| **1.** | Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali tashkilotlarni tashqi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 60 |
| **2.** | «Westone Aziya» tashkilot faoliyatini takomillashtirish yo‘llari. . . . | 68 |
| | **III bob** bo‘yicha xulosa . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .. . . . . . . | 74 |
| | **Xulosa** . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 78 |
| | **Ilova** . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . | 84 |
| | **Adabiyotlar ro‘yxati** . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . ... . . . . . . | 90 |

Magistratura to‘g‘risidagi nizomga
5-ILOVA

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

IV. Asosiy adabiyotlar

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

VII. Internet saytlari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati boblar bo‘yicha keltiriladi va undagi keltirilgan manbalar bobdan bobga o‘tishda ketma-ketligini yo‘qotmagan holda raqamlanadi.

**Adabiyotlar quyidagi tarzda rasmiylashtiriladi:**

«

**Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. 11 dekabr 2003 yil (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 2003 yil 22 dekabrdagi PF-3366-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi «2005-2006-yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida»gi PQ-29-sonli Qarori.

**Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

Do‘smuratov R.D. Audit asoslari. -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -604 b.

**Ilmiy jurnallardagi maqolalar:**

Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmati // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. – № 1. – B. 57-58.

**Internet saytlari quyidagi tartibda keltiriladi:**

http://www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | Kirish........................................................ | 3 |
| 1-mashg‘ulot | O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mohiyati............... | 5 |
| 2-mashg‘ulot. | Ilmiy-bilish metodologiyasi.............................. | 13 |
| 3-mashg‘ulot. | Ilmiy izlanish yo‘nalishini tanlash va ularning bajarilishi................................................ | 17 |
| 4-mashg‘ulot. | Ilmiy axborotlar manbalari izlanishi, yig‘ilishi...................................................... | 20 |
| 5-mashg‘ulot. | Ilmiy axborotlarni qayta ishlovi......................... | 24 |
| 6-mashg‘ulot. | Nazariy va amaliy ilmiy izlanish....................... | 25 |
| 7-mashg‘ulot. | Ilmiy ishlar natijalarini tuzish, axborotini berish va amaliyotda tadbiq qilish................................................ | 31 |
| 8-mashg‘ulot. | Ixtironi mazmuni va ko‘rinish hollari................ | 37 |
| 9-mashg‘ulot. | Ratsionalizatorlik talabnomasi, ilmiy tavsif va takliflar......................................... | 39 |
| 10-mashg‘ulot. | Ilmiy mavzudagi kurs ishlari (loyihasi)ni o‘rganish................................................. | 42 |
| 11-mashg‘ulot. | Bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi o‘rganish................................................. | 44 |
| 12-mashg‘ulot. | Magistrlik dissertatsiyalarini bajarilishi buyicha umumiy tushunchalar.................................. | 45 |
| | Ilova 1......................................................... | 51 |
| | Ilova 2........................................................ | 73 |
| | Ilova 3......................................................... | 82 |

***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti***

***«Xizmatlar ko'rsatish, servis va uni tashkil etish» kafedrasi***

***Z.E.Mamarasulov***

# *"Ilmiy izlanish asoslari" fanidan amaliy (seminar) mashg'ulotlari uchun Uslubiy ko'rsatma*

***Oliy ta'limning***

*Iqtisodiyot, turizm va xizmatlar sohasi yo'nalishidagi bakalavriatura talabalari uchun mo'ljallangan*

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Institut bosmoxonasi,
Shoxrux ko'chasi, 60

Buyurtma №___
Hajmi 6,5 b.t.
Adadi 20 nusxa